

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLYI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI  
MUSIQA, BADIY GRAFIKA VA MEHNAT TA'LIMI FAKULTETI  
"BADIY GRAFIKA VA UNI O'QITISH METODIKASI" KAFEDRASI

**Qurbonova Ra'no Bahronqulovna**

**"Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san'at darslarida zamonaviy  
me'morchilik mavzusida rasm chizishni o'rganish uslubiyati"**

5111000 – Kasb ta'limi (Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi)  
ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

ILMIY RAHBAR:

Sh. Oydinov

Bitiruv malakaviy ishi "Badiiy grafika va uni o'qitish metodikasi"  
kafedrasida bajarildi. Kafedraning 20\_\_ yil \_\_ maydagi majlisida muhokama  
qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma №\_\_)

Kafedra mudiri: katta o'qituvchi: D.Irgashev

Bitiruv malakaviy ishi YaDAKning 20\_\_ yil \_\_ iyundagi majlisida himoya  
qilindi va \_\_ ball bilan baholandi (bayonnoma №\_\_)

YaDAK raisi: \_\_\_\_\_

A'zolari: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Samarqand-2015

**Samarqand Davlat Universiteti Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi  
fakulteti**

**“Badiiy grafika va uni o'qitish metodikasi” kafedrasining  
201\_\_\_\_yil\_\_\_\_mayda bo'lib o'tgan bayonnomasidan**

**KO"CHIRMA**

Qatnashdilar: Kafedra a'zolarining \_\_\_\_ nafari  
Majlis raisi: katta o'qituvchi. D.Irgashev  
Kotib: o'qituvchi B.Xo'jamurodov

**KUN TARTIBI:**

“Badiiy grafika va uni o'qitish metodikasi” kafedrasida 2014-2015 o'quv yilida talabalarning bajarilgan bitiruv malakaviy ishlarining dastlabki himoyasi va ularni himoyaga tavsiya etish haqida.

**ESHITILDI:** 2014-2015 o'quv yilida 5111000 – Kasb ta'limi (Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi) ta'lim yo'nalishi kunduzgi bo'lim talabalarining bajarilgan bitiruv malakaviy ishlari bilan majlis ahlini kafedra mudiri katta o'qituvchi D.Irgashev tanishtirdi va quyidagilarni bayon qildi:

2014-2015 o'quv yilida Kasb ta'limi (Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi) yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi **Qurbonova Ra'no Bahronqulovna “Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishni o'rganish uslubi”** mavzusida bitiruv malakaviy ishi yozdi. Ilmiy rahbar Sh. Oydinov, talaba mavzu bo'yicha yozgan ishini kafedraga taqdim etgan. Ish yuzasidan ilmiy rahbarning ijobiy mulohazasi ham bor. U bitiruv malakaviy ishining mazmuni bilan tanishtirsa. Ra'no Qurbonova bitiruv malakaviy ishining mazmun-mohiyati haqida so'zlab, mavzuning dolzarbligi, o'rganilish darajasi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amalga oshirilgan ishlari haqida bayon etdi. Shundan so'ng talabaga katta o'qituvchi D.Irgashev, o'qituvchilar I.Izbosarov, Sh.Jumyev, J.Raxmatov, E.Shavqiyev savollar berishdi. Ra'no Qurbonova savollarga aniq va qisqa javob berdi. Ra'no Qurbonovanning chiqishi, savol-javoblaridan so'ng mazkur bitiruv malakaviy ishini YaDAKda himoyaga tavsiya etish haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

**Ushbu masala yuzasidan kafedra yig'ilishi**

**QAROR QILADI:**

1. Kasb ta'limi (Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi) yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi **Qurbonova Ra'no Bahronqulovna “Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishni o'rganish uslubi”** mavzusida bitiruv malakaviy ishi talabga javob beradi deb hisoblansin va YaDAKga himoyaga tavsiya etilsin.
2. Talaba **Qurbonova Ra'no Bahronqulovna “Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishni o'rganish uslubi”** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi o'qituvchi Sh. Oydinov ilmiy rahbarligida, SamDAQI “Tasviriy san'at” kafedrasida katta o'qituvchisi Sh. O'rinboyev va “Badiiy grafika va uni o'qitish metodikasi” kafedrasining o'qituvchisi J. Xoliqov taqrizchiligida ko'rib chiqilgan deb hisoblansin, ijobiy baholansin va asosiy himoyaga tavsiya etilsin.
3. “Badiiy grafika va uni o'qitish metodikasi” kafedrasining ushbu qarorini tasdiqlash fakultet dekanatidan so'ralsin.

**Majlis raisi:**  
**Kotib:**

**katta o'qituvchi D.Irgashev**  
**B.Xo'jamurodov**

## **Kirish**

**Mavzuning dalbzarbligi.** Tasviriy san'at o'qituvchisi boshqa fanlar o'qituvchilari kabi birinchi navbatda eng yuksak fazilatli ahloqiy pok, iymon va e'tiqodli, halol va sofdil, yoshlarga nisbatan mehribon, o'zbek xalqining urf – odatlari, an'analarini yaxshi biladigan shaxs bo'lishi kerak.

1997-yili O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da estetik turkumdagi fanlarni o'qitilishiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, xususan uning "Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari" qismida uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplaridan biri ta'limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi, U ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish lozimligini qayd etadi.

Kelajak yoshlarni komil, sog'lom, teran fikrli, dunyo qarashi keng, Vatanga, halqimizga foydasi tegadigan barkamol insonlar bo'lib yetishishida tasviriy san'at fanining ham o'z o'rnini bor. O'tmishda ota-bobolarimiz tasviriy san'at, amaliy san'at va xalq hunarmandchiligida yuksak darajaga etishganligining sabablaridan biri ajdodlarimiz usta-shogird an'analari asosida yoshlarga hunar o'rgatganlar va ular nihoyatda boy tajribaga ega bo'lganlar. O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimovning "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" nomli asarida "Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi an'analarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir", deb takidlab o'tgan edilar

Tasviriy san'at inson aql idrokining kengaytirib uning tevarak atrof munosabatini ustiradi. U iqtidorli va estedotli yoshlarni shakillanuvi uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Shu kabi kishi qalbida go'zallik hislarini, ezgulikni, tabiatga, Vatanga bo'lgan muhabbatni oshiradi. Tarixiga, milliy urf odatlariga bo'lgan qiziqishni oshiradi va uni ulug'laydi. Shuningdek yoshlarni sabr toqatli,

chidamli bo'lishlarida ularda mehnat qilish ko'nikmalarini shakllanishida ham yordam beradi.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta'lim tarbiya jarayoniga berilayotgan e'tibor diqqatga sazavordir. Bo'lajak o'qituvchilar ham yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda bu imkoniyatlardan unumli foydalanmogi kerak.

Shahar va qishloqlarimizda barpo etilayotgan zamonaviy me'morchilik ko'rinishlarini ko'rib dil quv Naydi. O'zbekistonimizda, jahon talablariga javob beradigan qilib qurilgan zamonaviy me'morchilik ko'rinishlarini tasviriy san'atda ifodalanishi ta'lim tarbiya sohasida ahamiyati kattadir.

**Muommoning o'rganilganlik darajasi:** O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'limdagi barcha ishlar komil inson ma'naviyatini rivojlantirish bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Zamonaning ilg'or kishilari safida bo'lish masalasi ham bugun dolzarb. Mana shunday muammolarni bartaraf etishda zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktab va kollejlarda tasviriy san'at, xalq amaliy san'atini o'qitish va uning metodikasi masallari bilan ko'plab olimlar shug'ullanib kelishgan. Shulardan professor R.Xasanov, S.Bulatov, M.Nabiyev, B.Boymetov, dosentlar B.Oripov, A. Turdialiyev, B.Azimova, O. Hudayorova, Q. Qosimov, X.Egamov, S. F. Abdirasilovlar tasviriy san'at ta'limining metodik yo'nalishini tadqiq qilganlar. Tasviriy san'at va amaliy san'at bilan ta'lim - tarbiya birligini yechimi bo'yicha ham ancha ishlar amalga oshirib borilgan. Tasviriy va amaliy san'at, rasm chizish va uni o'qitish masalalari bo'yicha rus rassomlari, olimlari va metodistlaridan professor V.S.Kuzin, A.P.Fomicheva, Y.V.Shoroxov, N.N.Rostovsev, B.P.Yusov, B.M.Neminskiy, V.N.Fedorovlarning ko'plab asarlari mavjud. Shuningdek, O'zbekistonda kasb-hunar ta'limining tasviriy va amaliy san'at sohasiga oid masalalar bilan olimlardan B.Boymetov, A.Abdurasulov, N.Tolipov, B.Oripov, A.Turdialiyev, U.Nurtoyev kabilar metodika bo'yicha darsliklari va metodik ishlanmalar yaratdilar.

Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik va uning tarixi haqida ma'lumotlar berib borish talabalarining dunyo qarashini har tamonlama kengayishiga yordam beradi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda memorchilik sohasida o'lgan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Bunga misol qilib zamonaviy, jahon andozalariga mos ravishda qurilayotgan maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, aholi yashashi uchun ko'p qavatli imoratlar va shu kabi boshqa ko'plab qurilish va obodonlashtirish ishlarini aytish mumkin. Albatta zamonaviy me'morchilik haqida fikr yuritganda ajdodlarimiz tamonidan yaratib qoldirilgan boy madaniy tarixiy me'morchilik yodgorliklarini ham eslab o'tish o'rinli deb uylaymiz.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng Vatanimiz hududidagi qadimiy yodgorliklarini saqlash ularni qayta tiklash, ta'mirlash ishlariga keng yo'l ochib berilmoqda. Jumladan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon va Toshkentdagi obidalar qayta tiklanmoqda. Ularni tiklashda xalq ustalari jalb etilib, ustalar o'z shogirdlari bilan, birgalikda obidalarga sayqal berishmoqda.

Tarixga nazar solars ekanmiz ota-bobolarimiz yaratib qoldirgan boy madaniy merosimiz tarixiy me'morchilik obidalarini beboho va rang barangligini guvohi bo'lamiz. Afsuski bu madaniy tarixiy me'morchilik yodgorliklari sobiq sho'rolar davrida holokat yoqasi kelib qoldi. Bu durdona me'morchilik binolari harobalarga aylantirildi. Shu davrda O'zbekistonda qurilgan memorchilik binolari bizning milliy an'analarimizdan ancha yiroq bo'lib tashqi ko'rinishi va mustahkamligi jihatidan ham talabga javob bermasdi. Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng bunday kamchiliklarga butunlay barham berila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatidagi faoliyati, milliy me'morlik va shaharsozlik sohalarida yangi ufqlarni ochib berdi. Huquq va erkinlikni qo'lga olgan mustaqil davlatimiz, xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar o'rnatib, jaxon xamjamiyati doirasida o'z o'rniga ega bo'ldi.

**Malakaviy bitiruv ishining maqsadi:** Kollejlarning tasviriy san'at darslarida mavzuli rasm chizishning samarali usullarini ishlab chiqish.

**Malakaviy bitiruv ishining vazifalari:**

- Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishning umumiy tamonlari.
- Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik haqida ma'lumotlar.
- Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishni o'rgatishning ahamiyati.
- Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishda tasvir vositalari va rang munosabatlari bilan ishlash.
- Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishning shakl va uslublari
- Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishning o'ziga xosligi.
- Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizish metodikasi.

**Malakaviy bitiruv ishining obyekti:** Kasb - hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida mavzuli rasm chizish jarayoni.

**Malakaviy bitiruv ishining predmeti:** Kasb - hunar kollejarida tasviriy san'atning mavzuli rasm chizish darslari.

**Malakaviy bitiruv ishining metodlari:** Nazariy tahlil, kuzatish, dars o'tish va o'rganish.

**Malakaviy bitiruv ishining ilmiy farazi:**

- Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishning umumiy tamonlari o'rganilsa.
- Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik haqida ma'lumotlar berilsa.
- Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishni o'rgatishning ahamiyati o'rganilsa.
- Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishda tasvir vositalari va rang munosabatlari bilan ishlash o'rganilsa.

- Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishning shakl va uslublaridan foydalanilsa.
- Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishning o'ziga xosligi o'rganilsa.
- Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizish metodikasidan foydalanilsa.

**Malakaviy bitiruv ishining yangiligi:** Kasb hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida Zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizish dars soatlarini takomillashtirish va yangi usullarda dars olib borish dars ishlanmalari tayyolanganligi va rasm kompozitsiyasining tasvirlanganligi.

**Malakaviy bitiruv ishining amaliy ahamiyati:**

- Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishning umumiy tamonlari o'rganilgani.
- Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik haqida ma'lumotlar berilgani.
- Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishni o'rgatishning ahamiyati o'rganilgani.
- Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishda tasvir vositalari va rang munosabatlari bilan ishlash o'rganilgani.
- Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishning shakl va uslublaridan foydalanilgani.
- Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishning o'ziga xosligi o'rganilgani.
- Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizish metodikasidan foydalanilgani.

**Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi;** Kirish, ikki bob besh fasl, umumiy xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib \_\_\_\_betni tashkil etadi.

## **I bob Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishning umumiy tamonlari.**

### **1.1. Adabiyotlar tahlili**

1) 1997-yili O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da estetik turkumdagi fanlarni o'qitilishiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, xususan uning "Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari" qismida uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplaridan biri ta'limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi, U ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish lozimligini qayd etadi.

2) Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008. 174 b. Prezidentimizning ushbu asarida ma'naviyat tushunchasi, insonning ichki dunyosi, bugungi kunda insonlarda ma'naviy mafkurani shakllantirish, Sharq mutafakirlarining ma'naviyatni shakllantirish borasidagi fikrlari, mustaqillik davrida amalga oshirilgan ishlar, oilaning jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi hamda oila, mahalla va maktabning ma'naviyatni shakllantirishdagi o'rni kabi masalalarga e'tibor qaratilgan. Shaxs shakllanishida ma'naviyatning o'rni ajdod va avlodlarimizning ma'naviy merosidan foydalanish, xayotda o'z o'rnini topish, madaniyat va san'atning naqadar kerakligini o'qtirib o'tiladi.

3) I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda T., "O'zbekiston", 2000. 386 b. Prezidentimizning ushbu asarida "Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi an'alarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir", deb takidlab o'tgan edilar

4) M. Nabiyeu. Rangshunoslik T., "O'qituvchi", 1995. 22-b. Mazkur qo'llanma muallifning ko'p yillik pedagogik faoliyati hamda rangtasvir bo'yicha amaliy ish tajribalari asosida yozilgan. Qo'llanma ikki qismdan iborat bo'lib,



birinchi qismda rangshunoslik fani asosida rangning fizik, kimyoviy, psixofiziologik va estetik xususiyatlari yoritilgan. Ikkinchi qismida esa tasviriy san'atning asosiy turlaridan biri – rangtasvir texnologiyasini bilish metodikasining nazariy va amaliy jixatlari bayon etilgan.

5) N. Oydinov. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. T., "O'qituvchi", 1997. 53-b. Qo'llanmada tasviriy san'atning tur, janrlari va Ozbekiston hududida mavjud bo'lgan o'ziga xos tarixdan lavhalar hikoya qilinadi. Bir qator devoriy suratlar, haykallar kabi tasviriy san'at namunalari tahlil qilinib berilgan. Bundan tashqari talaygina rassomlarning ijodi, hayoti haqidagi ma'lumotlar bilan tanishsa bo'ladi.

6) S. Uralov. Mo'jiza yaratish san'ati. T., "Mehnat", 1996. Qo'llanmada amaliy va tasviriy san'atning nodir turlari haqida hikoya qilinadi. San'atimiz jilolari – rasm chizish san'ati, haykaltaroshlik, metalga qayta ishlov berish – kandakorlik, naqqoshlik, ganch va yog'och oymakorligi, kulolchilik, gilam to'qish kabi san'at turlari joy olgan.

7). R. Xasanov. Tasviriy san'at asoslari. T., G'.G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi. 2009. 86 bet. Bu asarda tasviriy san'atning asosiy manbalari haqida gap boradi. Tasviriy san'atning paydo bo'lishi, turlari va janrlari to'g'risida atroflicha hikoya qilingan. Rassomlar va ularning asarlari tahlillari ham beriladi. Asarlarning rangli, rangsiz suratlari keltirib o'tilgan. Shuningdek grafika, rangtasvir, dekorativ amaliy san'at, haykaltaroshlik, me'morchilik san'ati haqida fikrlarini bayon qiladi. Tasviriy san'at tarixiy taraqqiyoti to'g'risida ham to'xtalib sharq va g'arb o'yg'onish davrini ba'tafsil yoritib beradi.

8). O'zbekiston san'ati. "Sharq" nashiryoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T., 2001.4-98-betlar. O'zbekiston san'ati kitobi O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 10-yiliga bag'ishlanadi. Unda 1991-2010 yillardagi O'zbekiston san'atida erishilgan o'lkan yutuqlar haqida hikoya qilinadi. Kitobning 1 bobda me'morchilik, tasviriy va amaliy san'atga bag'ishlangan. Me'morchilik qismida O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatidagi

faoliyati davomida qilingan milliy me'morchilik va shaharsozlik sohalaridagi yangi ufqlar haqida ma'lumotlar keng yoritilgan.

9) S.F.Abdurasulov. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. T., "ILM – ZIYO", 2011. 154-b. O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazining ilmiy-metodik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. O'quv qo'llanma pedagogika kollejlarning maxsus o'quv fani — «Tasviriy san'at metodikasi» dasturi asosida tayyorlangan. O'quv qo'llanmada «Tasviriy san'at metodikasi» fanining maqsad va vazifalari, ilmiy tadqiqot bosqichi va metodlari, mashg'ulotlarning mazmuni va metodikasi, sinfdan tashqari ishlar mazmuni kabi masalalar o'z aksini topgan. Shuningdek, pedagogika kollejlari talabalari uchun tasviriy san'at metodikasi va dars turlari hamda uning mazmuni haqida ma'lumotlar, o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalalari bayon etilgan.

10) B. Boymetov. Qalam tasvir. T. "Musiqqa nashriyoti", 2006. 28-b. Nizomiy nomidagi TDPU ning Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. Qalamtasvir nomli darsligida tasviriy san'atning asosi hisoblangan qalamtasvir fani bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar mazmuni yoritilgan. Xususan, kitobdan qalamtasvirning nazariy asoslari, tasviriy san'atda perspektiva, kompozitsiya qonunlari, chiziqli konstruktiv qurilish, yorug'-soya qonuniyatlari, odam bosh suyagi va muskullarining plastik anatomiyasi, badiiy ta'limda qalamchizgi bajarishning o'ziga xos xususiyatlari va boshqalar o'rin olgan. Darslikda berilgan vazifalar talabalarning bilim va malakalarini hisobga olgan holda oddiydan-murakkabga usulida ishlab chiqilgan.

11) Shoxalil Shoyoqubov. Zamonaviy O'zbekiston mimiyaturosi. T., "O'zbekiston", 2006. 25-b. Ushbu kitob-albomda mamlakatimizda miniatyura san'atining yuz yillardan so'ng tiklanishi, mustqillik yillaridagi rivoji, bu borada erishilgan yutuqlar haqida misollar orqali hikoya qilinadi. Kitob o'quvchini Sharq miniatyura san'ati tarixi hamda yetishib chiqayotgan miniatyurachi san'atkorlar va ularning asarlari bilan tanishtirgani holda, ushbu soha mutaxassislari va

O'zbekiston miniatyura rangtasviri bilan qiziquvchilar uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

12) B.T. Maxmudov. Rangtasvirda kompozisiya. T., 2009. 14-b. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va Dizayn institutining 2009 yil 25 martda o'tkazilgan Ilmiy kengashi tamonidan nashrga tavsiya etilgan. Kompozisiya tushunchasi va tajrobasining qisqacha tarixi, kompozisiyaning asosiy qonunyalari, kompozisiyaning qoida, usul hamda vositalari, kompozision qonun-qoidalari va boshqalar yoritib berilgan.

13) S.S.Bo'latov. Rangshunoslik. T., O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti 2009. 35-b. Unda amaliy va tasviriy san'atni o'rganish uchun kerakli bo'lgan rangshunoslikga oid bilim va tushunchalar keng yoritib berilgan.

14) 10. Boymetov B., Abdurasulov R., Nurtoev O', Rajabov R. Tasviriy san'at. 5 – sinf uchun darslik. T.: “Ilm – Ziyo”, 2014 yil. 86 b. Darslik tasviriy san'at dasturida berilgan soatlarni to'liq qamrab olgan holda yozilgan. Darslarning olib borilishi, ma'lumotlar, rassom asarlari, chizish usullari ko'rsatib o'tiladi. Rangli reproduksiyalar bilan bezatilgan va yaxshi tasviriy ko'rinishlar bor. Lekin darslarning zamonaviy o'qitilishi to'g'risida ma'lumotlar ko'p berilmaydi. Faqat dedaktik o'yinlardan, testlardan foydalanish haqida aytiladi.

15) R.Hasanov. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. Toshkent, 2004 yil. 200-bet. Kitobida yangi pedagogik texnologiyada dars o'tish masalasiga qisman to'xtaladi. Unda ko'proq turli o'yin usullarini, krasvord, topishmoq suratlar haqida fikr yuritib uni dars jarayoniga olib kirish mumkin deydi. Bu metodik kitob tasviriy san'at ta'limida o'qiyotgan talabalar va o'qituvchilari uchun tayyorlangan. Bunda tasviriy san'at o'qitish metodikasining talablari va darslarni olib borish, tashkil etish, tarixi haqida fikr yuritilgan. Ko'pgina hollarda noananaviy darslar, ishlanmalar, krasvord, testlar ham keltirib o'tiladi.

16) N. Oydinov. Rassom-o'qituvchilar tayyorlash muammolari. T., “O'qituvchi”, 1997.44-b. O'zbekiston tasviriy san'at tarixi, zamonaviy rassomlar ijodiy faoliyati, ta'lim muammolarini yechish borasidagi ilmiy-falsafiy risolalar hamda dastur, qo'llanma va ko'plab maqolalar bilan tanishilgan.

Biz o'rgangan adabiyotlarning hammasida me'morchilik san'atini tasvirlash haqida fikrlar beriladi. Adabiyotlarda me'morchilik ko'rinishlarini tasvirlash yo'lyuruqlari ko'rsatilib o'tilgan. Me'morchilik ko'rinishlarini juda ko'plab rassomlar ijodida ifoda etilganini ko'rish mumkin. Lekin mustaqillik yillarida bunyod etilgan zamonaviy me'morchilik ko'rinishlarini rassomlar ijodida hali ko'p ifoda etilmagan. Bitiruv malakaviy ishimizning amaliy qismida Toshkentda 1996-yilda qurilgan Temuriylar tarixi Davlat muzeyini grizayl usulida tasvirlashga harakat qildik.

## **1.2. Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik haqida ma'lumotlar.**

Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik va uning tarixi haqida ma'lumotlar berib borish talabalarining dunyo qarashini har tamonlama kengayishiga yordam beradi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda me'morchilik sohasida o'lgan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Bunga misol qilib zamonaviy, jahon andozalariga mos ravishda qurilayotgan maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, aholi yashashi uchun ko'p qavatli imoratlar va shu kabi boshqa ko'plab qurilish va obodonlashtirish ishlarini aytish mumkin. Albatta zamonaviy me'morchilik haqida fikr yuritganda ajdodlarimiz tomonidan yaratib qoldirilgan boy madaniy tarixiy me'morchilik yodgorliklarini ham eslab o'tish o'rinli deb uylaymiz.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng Vatanimiz hududidagi qadimiy yodgorliklarini saqlash ularni qayta tiklash, ta'mirlash ishlariga keng yo'l ochib berilmoqda. Jumladan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon va Toshkentdagi obidalar qayta tiklanmoqda. Ularni tiklashda xalq ustalari jalb etilib, ustalar o'z shogirdlari bilan, birgalikda obidalarga sayqal berishmoqda.

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida me'morchilik san'ati boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib qismini tashkil etadi. O'zbek diyori o'zining vujudga kelib gullab – yashnagan san'at turlarining betakrorligi bilan dunyoga mashxur. Bunday kamolot va taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, me'morchilik san'ati shox ildizlari insoniyatning iptidoiy davriga borib taqalishining guvoxi bo'lamiz. Ayniqsa Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Termiz, Toshkent, Qo'qon va boshqa shaharlardagi me'morchilik san'ati yodgorliklari o'tmish avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan bebaho san'at asarlarining namunalari bo'lib xalqimizning va shu bilan birga jahon madaniyatining durdonalaridan bo'lgan badiiy madaniy merosni tashkil etadi.

Xalq ustalari tajribasi, bilim va malakalari avlodlar orqali vaqt sinovidan o'tdi. Ustalar tomonidan asrlar mobaynida to'plangan boy madaniy meros, yorqin

ranglar jilosi, nozik didli bezaklar, yuqori madaniy saviyadagi naqshlar xalq memorchilik yodgorliklarida o'z aksini topgan. Ustalar mahalliy xom ashyolardan mohirona foydalanib, ularning hammasini o'z ijodlarida hamohang ishlatishgan

Markaziy Osiyoning er. avv. III asrdan to bizning III asrgacha qal'alar, katta sonli oilalar uchun turar joylar, alohida qurilgan yirik istehkomlar, mahallalar, shahar aholisi yashashi uchun uylar, hokimlar uchun qurilgan saroylar, ibodatxonalar arxitekturalari bizga ma'lum. Monumental inshootlar xom g'ishtdan yoki paxsadan qurilgan. Devorlari loy yoki ganch bilan suvalgan. Ba'zi hollarda devorlar sirtiga toshlar terilgan. Toshdan kerakli shaklga ega bo'lgan xoshiyalar, shaklli detallar, qabariq sirtga ega bo'lgan tasvirlar, haykallar, ustunlarning poyi va usti-boshalarini yasashgan. Binolar bezaklari ganch va sopoldan yasalgan. Qadimiy yodgorliklarda grafik bezaklar ham topilgan. Tuproq-Qal'a xonalari devorining birida erkak boshining tasviri aks etgan.

VI-VIII asrlarga kelib qurilish texnikasining rivojlanishi natijasida, avvalgilariga nisbatan mukammalroq bo'lgan bino gumbazlari yangi ko'rinishga ega bo'lgan bino shakllari topildi. Amaliy dekorativ bezak san'atida realistik tasvirlar shartli ifodalana boshlandi. Saroy devorlarining namoyonlari, yo'l ichidagi xoshiyalar va boshqa geometrik shakllarga chizilgan naqshlar bilan to'ldirib bezatila boshlandi. Shu davrga mansub devoriy bezaklarda saroy ahlining maishiy, jang, ov qilib turgan vaqtlari tasvirlanganini ko'rsa bo'ladi. Devoriy rang tasvir asarlarda afsonaviy va ertak qahramonlari yovvoyi hayvonlar, ajdarholar bilan jang qilayotgan vaqti tasvirlangan. Afsonaviy va real hayvon va qushlarning tasvirlari ham uchraydi. Bu tasvirlarning xarakterli tomoni, tasvir qora va qizil rangli chiziqlar bilan o'rab qo'yilgan. Tasvirlarda naqqoshning kompozitsion shartlilikka erishishga harakat qilish hohishi boriligi ko'rinib turibdi. Qadimgi qal'a shaharlar o'rniga boy zadogonlarning qasrlari va ularni o'rab turgan oddiy xalq uylari paydo bo'la boshladi, ularga juda noyob bo'lgan, ganchdan o'yilib, haykallar yasaldi.

Afrosiyob nomi bilan yuritilayotgan qadimgi devoriy rasmlarda rangtasvir san'atining rang-barang va nafis namunalari mavjud. Rasmdagi tasvirlarda sharq

xaqlariga xos ko'rinishlar ifodalangan. Bu suratlarni kuzatar ekanmiz, rassom devoriy rasmda keng manzarani qamrab olishga intilganini ilg'aymiz. Devoriy tasvirda to'y safari, daryoda chumilish, elchilarni qabul qilish marosimi, ov kabi ko'rinishlar aks etgan.

Termiz yaqinidagi Bolaliktepa yodgorligidan topilgan bino devorlarining to'rtala tomoni ham turli ko'rinishdagi rangdor tasvirlar bilan to'ldirilgan. Bolaliktepa rangtasvir san'atida odamlarning kayfiyati, o'zaro munosabatlari, xarakterlari rassom tomonidan o'ta ustalik bilan tasvirlangan. Umuman obrazlarning xatti-harakati, qiyofalaridagi ko'rinishlar qandaydir to'y yoki bayramona marosimni aks ettirmoqda.

Buxoroning qadimgi madaniy markazlaridan biri – Varaxshadan ham devorlari suratlar bilan bezatilgan hashamatli saroy qoldiqlari topilgan. Bu me'morchilik obidasi va undagi san'at namunalari sharq xalqlariga xos madaniy aloqalar qay darajada bo'lganligini o'rganish imkoniyatini ham ko'rsatib beradi. Umuman, tasvirlar rang-barang manzaralar bilan boyitilgan va ma'lum bir go'zallikni o'zida mujassamlashtirgan. Devoriy suratlardagi tabiat manzaralari turli daraxtlar ko'rinishlari bilan o'zgacha ma'no kasb etgan.

Umuman o'tmish tasviriy san'ati me'morchilik san'atining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Nozik va nafis, rang – barang devoriy suratlar, haykaltaroshlik namunalari me'morchilik san'atini boyitibgina qolmasdan, u bino va xonalarni nima uchun, kim uchun xizmat qilganini ham har tomonlama aniqlab bergan.

Vatanimiz hududiga Islom dinini kirib kelishi bilan tasviriy san'atda o'ziga xos o'zgarishlar ro'y beradi. Yozma manbalarning yoritilishi bo'yicha bir qancha vaqt rassomlar asarlarida jonli mavjudotlarni tasvirlashda cheklanishlar ro'y beradi. Shu sababli bu davrda asosan turli tasvirlar o'rniga amaliy san'at keng rivojlanganligi, me'morchilik amaliy bezak san'ati orqali, rangli naqshlar orqali bezatilishi nihoyat darajada rivojlangani kuzatiladi.

Islom dini va tasviriy san'at haqida fikr yurutib, falsafa fanlari nomzodi N. Oydinov o'zining “Rassom-o'qituvchilar tayyorlash muammolari” monografiyasida shunday fikrlarni keltrib o'tadi “... islom dini va

muqaddas Qur'on kitobi tasviriy san'at asarlarini mutlaqo taqiqlagan degan fikrlarga to'liq qo'shib bo'lmaydi. Tarixdan ma'lumki, islom dini ta'limotini to'la-to'kis bilmagan ayrim shariat peshvolari xatti-harakatlari tufayli tasviriy san'atga nisbatan keskin fikrlar, hatto vahshiyliklar yuzaga kelgan. Yana shuni aytish kerakki, islom dinining keng tarqalishini ta'minlash uchun butlar, sanamlarni, xudo tasvirlarini keskin chegaralash ham zarur bo'lgan."

XI-XII asrlarga kelib tasviriy va amaliy san'at bir-biri bilan o'zaro uyg'unlashgan holda rivojlangani ma'lum. San'atkorlar ijodida turli geometrik shakllardan tashqari, o'simliklar, hayvon va qushlar tasviri bo'lgan naqshlardan foydalanilgan. O'sha davr boy zadogonlar, hukmdorlarining qasr va uylari, mehmonxonalar devorlari suratlar bilan bezatilganligi haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Bu suratlarda jang, ov manzaralari, qabul marosimlari va bazmlar tavirlangan. O'rta Osiyoga Chingizxonni bosqinchilik yurishi Vatanimiz hududida gullab yashnab turgan san'at va madaniyatini vayron qiladi. Uning ijodkorlarini esa qirib yuboriladi.

VIII-XIII asrlarda kelib siyosiy, madaniy-mafkura harakterida katta o'zgarishlar bo'lganligi san'atda ham o'z aksini topdi. Islom dinini tarqalishi naqqoshlik san'atining rivojlanishiga olib keldi. Yangi turdagi masjidlar, minoralar, maqbaralar, madrasa va xonaqolar, madaniy binolar vujudga kela boshladi. Shaharlarda qasrlar, karvon-saroylar, hammom va boshqa inshootlar qurila boshlandi. Binolarni bezash ishlari, naqqoshlik san'atining rivojlanishiga olib keldi. Geometrik naqshlar juda keng qo'lanila boshlandi. Afrosiyobdagi va Somoniylar saroyining devorlaridagi o'yma girix bunga yorqin misol bo'la oladi

Albatta O'rta Osiyo san'ati va madaniyati taraqqiyotining muhim bosqichi XIV asrning 70-yillaridan boshlandi. Bu davrga kelib, dastlab O'rta Osiyo, so'ngra jahon miqyosida o'zini adolatli hukumdor sifatida namoyon etgan Amir Temur ( 1336 - 1405) hokimiyat tepasida bo'lgan davrda Samarqand Sharqdagi yirik imperiyaning markaziga aylandi. Amir Temur o'z imperiyasi poytaxti bo'lgan Samarqandning shuhratini oshirishga harkat qilib, mohir usta,



hunarmand va binokorlar ijodidan foydalandi. Shahar atrofida obod qishloqlar barpo etildi. U to'g'ilib o'sgan Kesh shahriga (hozirgi Shahrisabz) ham katta e'tibor berdi. O'rta Osiyoning bir qator yerlariga yirik inshootlar qurdirdi. Jahon savdo yo'lini yana Samarqanddan o'tkazdi. (Oltin O'rda hukumronligi davrida karvon yo'llari u yerdan chetlatilgan edi). Temur o'zining butun faoliyatida o'z saltanatini mustahkamlash va abadiylashtirish uchun fan, san'at va adabiyotdan foydalanishga harakat qildi

Temuriylar sulolasi davrida O'rta Sharqning o'rta asr madaniyati va san'ati gullagan davrni boshidan kechirdi. Bu davrlarda hashamatli va go'zal binolar vujudga keldi, devoriy rassomlik, amaliy – dekoratni san'at sohasida nafis asarlar yaratildi. Me'morlik va tasviriy san'atda qator yangi an'analarning vujudga kelishi va rivojlanishiga sabab bo'ldi. Birinchi bor vujudga kelgan yirik va murakkab me'morlik ansambllari shahar kompozitsiyasida muhim o'rin egallay boshladi va an'anaviy memorlik shakl va uslublarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Ayniqsa me'morlikning rangli bezak bilan boyishi katta badiiy – estetik ahamiyat kasb etdi. Albatta, rangli bezak O'rta Osiyo an'anaviy me'morligining ham ajralmas qismi bo'lgan. XIV asrga kelib, binoning ichki va tashqi pardozida alohida o'rinni egallay boshladi. Sirli sopol taxtachalarda ishlangan rangli naqshlar XIV asr oxirlaridan keng tarqala boshlagan o'yma sirli naqshlarning keng ko'lamda amalda tatbiq etilishi O'rta Sharq xalqlari ijodiy fantaziyasining katta yutug'i bo'ldi. O'rta Osiyo me'morligida ilk bor Ko'hna Urganchdagi To'rabek xonim maqbarasida namoyon bo'ldi. Xorazm ustalari yaratgan bu ajoyib yodgorlik an'analari Temur farmoyishi bilan Samarqand va saltanatning boshqa yerlarida keng foydalanilgan. Xorazm ustalari keng jalb etilgan.

XIV asr oxiri va XV asr boshlarida ayniqsa, Samarqandda katta qurilish ishlari olib borilgan, hashamatli va go'zal binolar vujudga kelgan. Shahar qalin devor bilan o'ralib, olti darvoza orqali kirilgan. Shaharda baland qo'rg'on bo'lib, uning saroylari bo'lgan. Bu davrda pishiq g'ishtdan qurilgan va moviy rang koshinlar bilan bezatilgan machit, madrasa va maqbaralar, osmon

o'par minoralar qad ko'tardi. Shunday yodgorliklardan biri Bibixonim jome machitidir. XIV –XV asrlarda bunyod etilgan bu yodgorlik O'rta Sharqning baland binolardan bo'lib, uning qurilishiga alohida e'tibor berilgan.

O'rta asr va O'rta Sharq me'morligining haqiqiy durdonasi, bu Temuriylar maqbarasi bo'lib, o'zining tantavor monumentalligi va dekorativligi bilan ajralib turadi. Bino sodda me'morlik hajmlardan - sakkiz qirrali asos, silindirik baraban va qirrali ko'k – moviy gumbazdan tashkil topgan, ichki qismi juda serjilva, devolari marmar bilan pardozlangan, o'yma va rangli naqshlar ham binoning ichki qismiga alohida fayz kiritgan.

Albatta, Temur va temuriylar davri me'morligini «Shohizinda» me'morlik kompleksisiz tasavvur yetib bo'lmaydi. Afsonaviy Afrosiyob yonbag'riga joylashgan bu ansambl XI – XII asrlarda bu yerda qurila boshlagan maqbaralar o'rniga qurilgan bo'lib, bu joy islom diniga qadar ham muqaddas sig'inish joyi bo'lgan. Afsonalarga ko'ra, shu yerda keyinroq musulmonlar avliyosi bo'lgan Qusam ibn Abbos maqbarasi bo'lib, go'yo u shu yerda tirilib, yer ostiga kirib ketgan va oxiratgacha shu yerda yashashga qaror qilgan degan fikrlar mavjud. «Shohi - zinda» («tirik podsho», «tirik shoh») nomi ham shundan olingan.

Hozirgi «Shohi-zinda» ansambli XIV – XV asrlarning birinchi yarimida qurilgan yodgorliklardan tashkil topgan. 1434 – 1435 yillarda Ulug'bek tomonidan qurdirilgan.

Shahrisabzdagi «Oq saroy» (1380 y.) Turkistondagi Ahmad Yassaviy me'morlik kompleksi ham O'rta Sharq me'morlarining ajoyib san'atini ko'z – ko'z qiladi.

XVI asr boshlarida Shayboniyxon va uning sulolasi hukumronlik qilgan yillarda san'at va madaniyat qator yangi an'analar bilan boyidi. U davrda Buxoro davlatning yirik markaziga aylandi. Bu yerda dunyoviy fanlar, musiqa, she'riyat, xattotlik va miniatyura rassomligi rivojlandi. Boxoroning qiyofasi beqiyos darajada o'zgardi. Temuriylar davri me'morligining yaxshi

an'analari rivojlantirilib, nodir inshootlar qurildi. Peshtoqlari bir –biriga qaratib qurilgan qo'sh madrasalar ko'plab qurildi.

XVII-asr me'morchilik san'atida tasviriy va amaliy san'at uyg'unlashib jonli mavjudotlar ishtrokida mahobatli devoriy rangtasvir asarlari yaratiladi. Samarqand shahridagi Registon ansambilining Sherdor maqbarasidagi sher va ohu ishtrokidagi kompozisiya bunga misoldir

XVII asrda Shayboniylar o'rniga kelgan ashtarxoniylar sulolasi davrida ham Buxoro katta qurilishlar davom etadi. Shunday yodgorliklardan biri Abdulazizxon madrasasi diqqatga sazovordir.

Shu yerda Samarqand Registonida Ulug'bek (XV asr), unga qarama – qarshi tomonda qurilgan Sherdor (XVII asr) va ular o'rtasida joylashgan Tilla qori madrasalari (XVII asr) dan iborat ansamb yaratildi. Bu binolar bevosita an'anaviy me'morlik prinsiplari asosida qurilgan, sirli koshinlar bilan bezatilgan. Sherdor madrasasi peshtoqi esa sherlar tasviri bilan bezatilgan.

XV-XVI asrlarga mansub turar joy xonadonlarning saqlanmaganligi tufayli, turar joy xonadonlarning qanday bezatilganligini kitoblarda saqlangan miniatyuralardan ko'rsa bo'ladi.

XVII asrga kelib devorga chizilgan bezaklar kamayib ketdi. Faqat ba'zi binolardagina saqlanib qoldi. Masalan, XV-XVI asrlarda qurilgan inshootlarning namunalariga teng keladigan Buxorodagi Abdulazizxon madrasasini (1652y) misol keltirsa bo'ladi. Bu madrasa XVII asr yodgorliklarining eng yorqin namunasi bo'lib, undagi bezak va naqshlar juda mayda qilib bajarilgan bo'lib, zamini ganch suvoqli kundal uslubida bajarilgan. Nozik naqshlar manzara bilan ham-ohang bajarilgan.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlariga kelib iqtisodiyotdagi ko'tarilish Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarining me'morchilik qurilishlarida ham sezilarli darajada namoyon bo'ldi. Xivadagi Tosh Hovli saroyi (1830-1832 yillar) avvalgi davrlar ya'ni, Xorazm qurilish an'analarini o'z ichiga olib qurilgani kishini hayratga soladi. Saroylar qal'aga oxshatib qurilgan bo'lib, ajoyib ayvonlari, o'ymakorlikda

bajarilgan ustunlar; eshiklar, faqat Xiva naqqoshlariga xos murakkab islamiy naqsh kompozitsiyalari rang-barang koshinlari bilan bajarilganini ko'rsa bo'ladi.

Buxoro me'morchiligida ham shu davrga kelib ijodiy ko'tarilish sezila boshladi. Ayniqsa, turar joy arxitekturasida rangli ganch suvoqlar va o'ymakorlik ishlari xalq ustalari tomonidan keng qo'llanila boshlanganligini ko'rsa bo'ladi.

Tarixga nazar solar ekanmiz ota-bobolarimiz yaratib qoldirgan boy madaniy merosimiz tarixiy me'morchilik obidalarini beboho va rang barangligini guvohi bo'lamiz. Afsuski bu madaniy tarixiy me'morchilik yodgorliklari sobiq sho'rolar davrida holokat yoqasi kelib qoldi. Bu durdona me'morchilik binolari harobalarga aylantirildi. Shu davrda O'zbekistonda qurilgan memorchilik binolari bizning milliy an'analарimizdan ancha yiroq bo'lib tashqi ko'rinishi va mustahkamligi jihatidan ham talabga javob bermasdi. Vatanimiz mustaqillikga erishganidan so'ng bunday kamchiliklarga butunlay barham berila boshlandi.

O'zbekistan Respublikasining mustaqil davlat sifatidagi faoliyati, milliy me'morlik va shaharsozlik sohalarida yangi ufqlarni ochib berdi. Huquq va erkinlikni qo'lga olgan mustaqil davlatimiz, xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar o'rnatib, jaxon xamjamiyati doirasida o'z o'rniga ega bo'ldi. Yangi ijtimoiy va iqtisodiy dasturlar uning hayotiy qiyofasini o'zgartirdi. Bu o'zgarishlarning eng yaqqol ifodasi bo'lmish me'moriy inshootlar, mustaqillikning yangi ma'naviy g'oyalarida, yangi ijtimoiy buyurtma va qurilishning ilg'or usullari asosida yuzaga kela boshladi. Xususan, respublika poytaxtida xam yangicha me'moriy taraqqiyot yuliga o'tildi.

Bahorgi Navruz ayyomini munosib nishonlash maqsadida O'zbekistan shox ko'chasining g'arbida, ya'ni Xalqlar do'stligi saroyi bilan Madaniyat va istiroxat bog'i oralig'ida, Alisher Navoiy nomli Milliy bog' barpo etish rejalashtirildi. Uning asosiy o'qida quyidagi ketma-ketlikni ko'rish mumkin: favvorali aylana xovuz, amfiteatr shaklida tomoshabinlar joylari, atrofiga gumbazli minoralar joylashtirilgan sahna, ariq ustida ko'prik va tepalikka esa Alisher Navoiyning mahobatli haykali o'rnatilgan. Haykal ayvonchasi (pavilon) feruza rangli qovurg'asimon gumbazdan iborat. Ulug' shoir va davlat arbobining "Olam ahli,

bilangizkim, ish emas dushmanlig', yor uling bir-biringizga, erur yorlig' ish'' mazmunidagi she'riy satrlari gumbazning ichki qobig'ida bir necha tilda yozilib chiqilgan.

Amir Temur hiyobonining shimoliy g'arbida qurilgan Temuriylar tarixi Davlat muzeyida (1995 yil, A.Turdiyev) Milliy bog'dagi Alisher Navoiy haykali joylashgan ayvonchanning yangicha talqindagi xolatini ko'rish mumkin. Guri Amirning qovurg'asimon gumbazi muzeyda yana bir bor o'z ifodasini topgan. Binoning gumbazi va qamrab turuvchi 20 ustunli ayvoni anchagina kengayganligi bilan ajralib turadi. Gumbazning balandligi 30 metr, diametri 24 metrni tashkil etadi. Muzey gumbazining ichki qismiga Samarqandning Registon maydonidagi Tilla-Qori madrasasi singari kundal uslubidagi moviy va tilla ranglarga bo'yalgan ganchkor islamiy naqshlar berilgan. Ularni gumbaz ostidagi og'ir vaznli qandil yoritib turadi. Muzey zali va ikkinchi qavatdagi galereya sayqallangan oq va och-kulrang marmarlar bilan qoplab chiqilgan. Muzeyga kiraverishdagi devor sahnida Amir Temur va uning davlatini ulug'lovchi uch qismli miniatyura uslubidagi maxobatli devoriy tasvir ishlangan. Muzeyning shakl-bezaklari yuqori maxorat bilan bajarilgan bo'lib, viloyatlardagi xalq ustalarining milliy uslubdagi imoratlarini esga soladi. Mustaqillik davrining xalq uslubi shu jixatlari bilan Temuriylar muzeyida o'zini to'la namoyon etgan.

Barcha davrlar va mamlakatlarning yirik ma'muriy inshootlarida klassik uslubdan doim unumli foydalanib kelingan. Toshkent shahar hokimligi (1997 y., F. Tursunov) va O'zbekistan Respublikasi Oliy Majlisi binolari (1997 y., V. Akopdjanyan) ustunlar bilan qamrab olingan. Oq ustunlar iloji boricha soddalashtirilgan va ularning kapitellariga barglar guldastasi ishlangan. Hokimiyat binosining markaziy peshtoqi har ikki tomondan tuqqizta ustundan tashkil toptan bo'lsa, Oliy Majlisning har ikki tomonida o'ntadan ustunlar joylashtirilgan. Oliy Majlis binosining asosiy yuza qismini egallagan tillarang yaxlit oynalar tepadan pastga tushguncha uch marta ichkariga kiritilgan. Umumiy tuzilishi Janubiy Koreya parlamentiga o'xshash Oliy Majlis binosining

milliyligi feruza rang gumbaz va uning ustidagi an'anaviy tojsimon oynaband tuynuk bilan ifoda etilgan.

Xokimiyat binosi Toshkent ramzi bo'lmish kurant — soatli minora bilan bir chiziqda qurilgan va majmua xosil etgan. Kurantlarning yarim asrlik suvoqlari qirib tashlanib, g'isht devorlari sarg'ish plitkalari bilan qoplab chiqildi. Eshiklar, derazalar va ularning panjaralari xam almashtirildi.

1990 yillar o'rtasida Xindistonning "Tata" korporatsiyasi O'zbekistonda uchta yirik mexmonxona barpo etdi. Bular sirasiga Toshkent markazida 1980 yillarda qurilgan Madaniyat-axborot markazi binosini o'ziga qo'shib olgan holda "Meridien", Samarqandning Amir Temurning sobiq qal'asi o'rnida "Afrosiyob" hamda tarixiy shahar yonidagi yangi markaz majmuasi sifatida bunyod etilgan "Buxoro" mexmonxonalarini (1996 yil, M. Voxidov, V. Sipishev, R. Yanbulatov) kiritish mumkin. "Meridien"ning pog'onasimon piramidasi, "Buxoro"ning mahobatli va baland qiyofasi va "Afrosiyob"ning keng bo'lib yoyilgan xajmlari mazkur xajmiy-fazoviy tuzilishlari bilan bir-biridan farq qiladi. Korporatsiya uslubiga xos jixatlar vestibul va pastki qavatlarini baquvvat temirbeton sinchlar orqali bajarish, tashqi devorlariga rang berishda sariq va to'q-sariq ranglardan foydalanish, ulardan ajralib turgan oyna xajmlari va balkonlarning oq beton qobiqlaridan foydalanish kabilardir.

Mazkur uslubga xos bo'lgan yirik temirbeton sinchni, dadil kompozitsion qaramaqarshiliklarni va namoyishkorona ishlatilgan qimmatbaxo qurilish materiallarini Turkiyaning "Oy-sel" korporatsiyasi (1995 yil, A. Taxtaev) qurgan "Interkontinental" mexmonxonasida va Milliy bankning osmonupar binosida kurish mumkin.

1999-yilning oxirida "Toshkent-Sheraton" mexmonxonasi Toshkentning Amir Temur va Alisher Navoiy chorraxasida Belgiyaning "Buig" korporatsiyasi tomonidan qurib topshirildi. "V" xarfiga uxshash reja asosida barpo qilingan mexmonxona 20 qavatli qirrasimon oq-kulrang betonli bino ko'rinishida bajarilgan. Ushbu qirralarning kukimtir oynali derazalaridan shaxarga 250 o'rinli

xonalar qaratilgan. Ular ichida ikki xonali “lyuks”lar xam mavjud. Binoning ixcham va aniq bo’lingan xajmi ko’chalarga va quyoshga nisbatan shunday o’rnatilgan-ki, shaharning ko’pgina joylaridan turlicha bo’lib ko’rinadi.

XX asrda masjid sifatida foydalanishga man etilgan Bibixonim masjidi qoldiqlari bugungi kunda Olloxning muqaddas dargoxi sifatida qayta tiklandi. Garchi Temuriylarning “Viloyatimiz va karomatimizga shak keltirsang magar, tiklamish imoratimizga qilmagil nazar” da’vati, shak-shubxasiz, xarobalargagina emas, balki mustaqil davlat qayta tiklayotgani masjidning tarixdagi insonni lol qoldirar baquvvat maxobatiga xam to’g’ri keladi.

Yangi iqtisodiy munosabatlar o’rnatilishi mobaynida shaharlarimizning shohko’chalarida joylashgan, xayotimiz ko’rsatgichi va ijtimoiy fikrni shaqlovchi bozorlarimiz tubdan o’zgardi. Viloyatlarda ularni qurishda xalq ustalari faol qatnashdilar. Termiz bozorining ikki qavatli savdo dukonlari favvora va gishtdan terilgan ravoqli ko’rinishdagi bezakli devori keng maydonga qaratilgan. Quqon Dehqon bozori imoratlari “evrouslub”da bezatilgan. Toshkentdagi eski shahar bozorining yirik temir-beton gumbazlari rang-barang sopol naqshlar bilan qoplab chiqilgan. Gumbazlar ostida savdo zallari, dukonlar va xalq xunarmandlarining “Usto” birlashmasi ustaxonalari joylashgan. Oloy bozori Amir Temur shohko’chasiga ikki qavatli savdo rastasi bilan ko’rinadi.

Andijon shahri atroflaridagi tog’lar va dalalardan esadigan shamollarga moslashtirib ochiq tepalikda Bog’i-Bobur oromgoxi rejalashtirilib qurildi. Xindistondagi yirik davlat asoschisi Zaxiriddin Muxammad Boburning bog’laridan biri xuddi shu erda bo’lgan ekan. Daraxtlar ostidagi dam olish joylarida milliy taomlar tayyorlash uchun zarur bo’lgan oshxonalar va o’choqlarga moslashtirilgan. Deyarli barcha istiroxat bog’larida oldingi eskirgan inshootlar urniga yangi materiallar va konstruksiyalardan qurilgan zamonaviy turlardagi imorat va uyingoxlar qurilgan.

Toshkentda tennis bo’yicha Prezident kubogi uchun o’tkazilayotgan xalqaro musobaqalar shu sport turini bizda ommaviy bo’lishiga va tennis maydonchalari

— kortlarni Andijon, Namangan, Qarshi va boshqa viloyat markazlarida qurilishiga sabab bo'ldi. Amir Temur shohko'chasining g'arb tomonidagi mustaqil O'zbekistan me'morligining ko'rgazmasi bo'lmish qator ketgan yangi qurilishlar majmuasi shimoldagi Yunusobod korti bilan tugagan. Ochiq kortlar shohko'cha buyida, balandligi 375 metr uch oyoqlik televizion minora tagida joylashgan. Kortlar orqasida 3000 o'rinli usti yopiq universal kort binosi qurilgan.

1998 yilning 23-24 oktyabridagi buyuk mutafakkir imom al-Buxoriyning 1225 yilligi va olim Axmad al-Fargoniyning 1200 yilligi tantanalari respublikaning ma'naviy sarchashmalari sari intilish jarayonida muhim voqealar sifatida o'tdi. 1998 yil boshlanishida, Prezidentning ijobiy bahosi bilan, ikkala majmua loyixalari buyicha 8 oy mobaynida xashar usuli bilan Samarqand viloyati Xartang qishlog'ida al-Buxoriy majmuasi va Quva xududi markazida al-Farg'oniy majmuasi qurib topshirildi. Xartang qishlog'ining ilgarigi majmuasidan qabr, xovuz va xovlisidagi besh chinor qoldirildi. Yangi majmua sahni 10 gektarga teng. Kvadrat rejali xovli, chorbog' an'anasi buyicha, chor chamanlarga bo'lingan. Saqlanib qoldirilgan xovuzga, xovli tarxi muvozanatiga rioya qilgan xolda, yana bir yangi xovuz qazilib obodonlashtirilgan. Xovlining g'arb tomonida 800 odamga muljallanib rejasi 30x20 metr va tomi metall fermalardan iborat masjid qurildi. Old ayvoni bilan, masjid 1500 ta odamni qabul qilishi mumkin. Xovlining boshqa tomonida 100-150 o'rinli qabullar zali, kutubxona va oshxona joylashgan. Xovliga kirishda esa ma'muriyat va bir nechta dam olish xonalari qad rostlagan. Xovlini ustunli ayvonlar qamrab olgan bo'lib, uning o'qida esa islom olamidagi ikkinchi buyuk shaxsning maqbarasi bunyod etilgan. Qozonilgan g'alabani Xotira va qadrlash kuni deb e'lon etilishi bilan Motamsaro ona nomli yangi majmua shakllandi. Abadiy alanga yodgorligi Mustaqillik maydonidan shimoldagi xiyobonda joylashgan bo'lib, maydon kengligini davom ettirib turadi. Abadiy alanganing g'arbiga motamsaro ona haykali o'rnatilgan. Uning qiyofasini yaratayotgan haykaltarosh rassom Raxim Axmedov asarlaridagi o'zbek onasining siymosidan foydalangan. Xiyobonning uzunligi 60 metr bo'lib, shimoliy va janubiy ayvonlarda halok bo'lgan O'zbekistonlik barcha askarlarning ismi



shariflari keltirilgan. Majmuani barpo etishda butun respublika xalq ustalari qatnashgan bo'lib, shunga o'xshash me'moriy yodgorliklar viloyat markazlarida xam mavjud. 1999 yilning 5 noyabr kuni Urganchning jasur sarkardasi va davlat arbobi Jaloliddin Manguberding 800 yilligiga bag'ishlangan me'moriy yodgorlik ochildi. Yodgorlik markazida qilich dastagini ushlagan sulton Jaloliddin Manguberding kata haykali bunyod etilgan. Uning un bir yil mobaynida Chingizxon qushinlariga qarshi olib borgan mardonavor kurashi jaxon tarixi solnomalariga oltin xarflar bilan kiritilgan. Jaloliddin Manguberdi tavalludining tantanali kunlarida, al-Xorazmiy va al-Beruniy ramziy maqbaralari mavjud bo'lgan yodgorlik bog'lari ochildi. 2000 yil 12 mayida Toshkentning Yunusobod tumani Buzsuv kanali buyida qatag'on qurbonlariga bag'ishlangan Shaxidlar xotirasi me'moriy yodgorligi ochildi. Uning gul chamanlari bilan obodanlashtirilgan tepaliklaridan birida feruza rangli an'anaviy qovurrasimon gumbaz qad ko'tardi.

Mustaqillik yillarida bunyod etilgan zamonaviy me'morchilik obidalari haqida qancha gapirsak shuncha ozdir. Chunki bugungi hayotimizda ko'zimiz bilan ko'rib turgan zamonaviy me'morchiligimiz jadal suratlar bilan rivojlanib bormoqda. Bu bunyodkorlik ishlari nafaqat halqimizni balki chet ellardan kelayotgan sayyohlar ham lol qoldirmoqda.

Mustaqillik O'zbekiston respublikasi me'morligini tubdan o'zgartirdi. O'zligini namoyon qila boshlagan millat, turli uslubdagi me'morlik inshootlarini yaratishga qodir ekanligini amalda ko'rsatdi. Yangi me'morlik muntazam rejalar, xandasaviy toza sirtlar, engil va tiniq konstruksiyalar, binolarni yangi turlari va tarixiy shaharlarni yangicha tiklash bilan islom madaniyatiga xos vazminlik ruhida maxobatli imoratlar yaratishga intilmoqda.

### **1.3. Kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishni o'rgatishning ahamiyati.**

Tasviriy san'at inson zotini mehnatga, aql-idrokka, tafakkur qilishga, ijod qilishga, go'zallikka intilishga o'rgatib, unda chiroyli, go'zal ma'naviy dunyosini yaratib keldi. Bugungi kunda tasviriy san'at odamlar va uning jamiyati uchun yuksak aql-idrok, chuqur bilim va tafakkur, go'zal turmush va e'tiqod yaratishini hamma yaxshi biladi. Shuningdek, tasviriy san'at yoshlarga faqat ilm-tafakkur, go'zal estetik ideallar beribgina qolmay, odam zotining eng muhim jihatlarini, ya'ni kuzatish, ko'rish, idrok qilish va tafakkur tasavvurlarini rivojlantiradi.

Talabalar tasviriy san'at mashg'ulotlarida "Zamonaviy memorchilik" mavzusida rasm ishlaganlarida me'morchilikning turli shakllarini ko'radilar, uning katta-kichikligini, shaklini, shaklidagi xunuk va chiroyli elementlarini aniqlaydilar, narsa shaklini idrok etib, rang va tusini o'rganishadi. Me'morchilik ko'rinishini idrok etish bilan birga, uning tasvirini yaratish tahlilini o'rganib, ong faoliyati asosida naturani tasvirga aylantirib, qog'oz yuziga joylashtirish bo'yicha hisob-kitob qilinadi. Shundan so'ng natura tasviri qog'az yuzasiga tushiriladi. Bu mashg'ulotlar davomida diqqat, idrok, xotira, tasavvur, did emotsiya rivojlanib, rasm chizish malakasi ortadi. Chunki bu mashg'ulotlarda talaba naturani kuzatadi va ko'radi, uni ong faoliyatida tahlil qiladi, rang tuslarini buyumlar ichidan topib, uni qog'ozga tushiradi.

Lekin bu jarayon shunchalik murakkabki, sog'lom rivojlangan odam talabasigina uning uddasidan chiqa oladi. Qarangki, bu jarayonda talabaning fikri chalg'isa, boshqa yoqqa ketsa, shakl chiqmaydi, rang topilmaydi. Shu boisdan hamma talaba ham rasm chiza olmaydi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida talabaning ko'rish a'zolari takomillashib boradi. Chunki har bir mashg'ulotda narsalarni e'tibor bilan kuzatishga va ularni idrok etishga o'rgatib, o'z diqqat e'tiborini bir nuqtaga qaratish malakasi ham beriladi. Bu jarayon talabaning ixtiyoriy diqqati

barqaror bo'lishini ham ta'minlaydi. Shuningdek, tasviriy san'at mashg'uloti talabalarni e'tiborli, zehn bilan faoliyat ko'rsatishga o'rgatib, ularning barcha his-tuyg'ularini jamlagan holda, o'zida bo'lgan nazariy va amaliy bilimlarni ishga soladi.

Butun vujudi, aql idroki, tasavvuri tafakkuri bilan faoliyat ko'rsatishga olib keladi. Shu boisdan nemis pedagog rassomi P. Shmitning «Tasviriy san'at mashg'uloti aql gimnastikasi» degan xulosasi mutlaq to'g'ridir. Xullas, tasviriy san'at darslari talabalarning har tomonlama rivojlanishi asosi bo'lib qoladi, bunda uning o'rni va roli benihoyat kattadir.

Rasm chizish mashg'uloti tasviriy san'atning asosi bo'lib, tabiatdagi barcha obyektlarning fazoviy shakllar tekislikda yoki sirtlarda tasvirlashdan iborat. Bunda tasviriy vosita bo'lib asosan chiziqlar va shtrixlar, ya'ni turli yo'g'onlikdagi chiziqlarning kesmalari xizmat qiladi. Chiziq hosil qiluvchi qurollarga qalamlar, mo'yqalamlar, bur, ko'mir, pastel, flamaster, pero, hamda kesish, tirnash o'yib olish bilan chiziqlar hosil qiluvchi asboblari kiradi.

Rasm chizish - tasviriy san'atning eng qadimgi turi hisoblanadi. Ibtidoiy odamlar tug'li buyumlar bilan tosh va g'or devorlariga turli xil tasvirlarni chizganlar. Eng qadimgi avlodlarimiz so'zlashuv qobiliyati yuzga kelgunga qadar hayvolarni rasmini tasvirlash orqali o'z tasavvuridagi fikrlarni bir-birlariga bayon qilganlar. Barori kelgan ovdan tasirlanib, o'zlari bilmagan holda kelajak avlodlar uchun nishonalar qoldirganlar.

Rasm chizishni o'rganish rassom, haykaltarosh, grafikachi, me'mor, dizayner, dekorativ san'at ustasi mutahassisligining asosiy qismini tashkil etadi. Rasm chizish texnikasini egallash gravyura, haykaltaroshlik yoki tasviriy san'atning boshqa turlaridagidek murakkab texnik ijroni talab qilmasada, bari-bir ko'p chizish, o'rganish kerak bo'ladi. Lekin rasm chizishni barcha xohlovchilar ham o'rganib olishlari mumkin. Buning uchun qiziqish va ishtiyoq, qunt va toqat bo'lsa bas. Bunday qiziqarli va maroqli mashg'ulotni rasm chizishga ishtiyoq bilan to'lib toshgan talabalikdan boshlansa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Tasvirlashda yaxshi natijalarga erishish uchun, tasvirlashning asosiy qonun qoidalarini puxta egallash zarur bo'ladi. Shu sababli qalamtasvirda ishlashning asosiy qonun - qoidalari haqida fikr yuritmoqchimiz.

Perspektiva qonuni. Tasvirlanayotgan buyum, ushbu buyum qaysi tomonidan tasvirlanishidan qat'iy nazar (uzoqdan, yaqindan, yuqoridan, pastdan, to'g'ridan yoki chekkadan), chizuvchiga o'zgarib ko'rinadi. Masalan, kubni u yoki bu tomonga burib, uning tomonlari perspektiv o'zgarib ko'rinishini kuzatamiz. Temir yo'l relslari, simyog'ochlar va kenglikdagi boshqa shakllarning bizdan uzoqlashgan sari kichrayib, bir nuqtada tutashini ko'rishimiz mumkin. Hayotda o'zaro parallel bo'lgan relslar hech qachon to'qnashmasalarda, perspektiva qonuniga binoan, ular bizdan uzoqlashgan sari bu holatni kuzatishimiz mumkin. Bu perspektiva qonuniga asosan sodir bo'ladi.

Buyumlarni tekishda haqqoniy tasvirlashda rassom perspektiva qonuniga bevosita murojaat qiladi. Bu holatni shunday ta'riflash mumkin: "Tabiatdagi barcha buyumlar qanday shaklga ega bo'lmasin, perspektiva qonun va qoidalariga bo'ysunadi".

Perspektiva qonunlarini mukammal o'rganib, har qanday buyumning ko'rinar va ko'rinmas tomonlarini to'g'ri tasvirlash mumkin. Perspektiva qonunlarining asosiy xususiyati shundaki, buyumlar qanday kattalikda bo'lmasin, chizuvchidan uzoqlashgan sari va tekislikda qanday joylashganiga qarab perspektiv qisqaradi.

O'z navbatida, perspektiva qonuni haqqoniy tasvirlash "alifbo"laridan bo'lgan "surat tekisligi", "buyum tekisligi", "ko'rish maydoni", "ko'rish nuqtasi", "ufq chizig'i" kabi qonuniyatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Surat tekisligi deb tasvirlanayotgan natyurmort, manzara, portret va hokazolar bilan rassom orasidagi bo'shliqqa aytiladi.

Fiziologik nuqtayi nazardan qaraganda, yorug'lik chizilayotgan buyumga tushganda, rassomga buyumning u yoki bu qismi ko'rinadi. Shundan keyingina rassom uni idrok etib, tasvirlashga o'tadi. Surat tekisligi rassom bilan natura o'rtasida vosita bo'lib xizmat qiladi.

Buyum tekisligi deb tasvirlanayotgan buyum joylashgan tekislikka aytiladi. Stol, pol, yer va boshqa chizish uchun bajariladigan moslama buyum tekisligi vazifasini o'tashi mumkin.

Ko'rish maydoni va ko'rish burchagi chizuvchining ko'rish vaqtida tasvirlanayotgan buyumni qamrab olishidir. Tasvirlanayotgan ob'yekt uzoqlashib borgan sari ko'rish maydoni ham kengayib boradi, bu esa tasvirlanayotgan ob'ektning barcha qismlarini aniq ko'rish va tasvirlashga imkon yaratadi. Lekin, ob'yektdan juda katta masofada turib, undagi hamma bo'laklarni va hajmlarni to'laqonli tasvirlash ancha qiyin. Aksincha, tasvirlanayotgan ob'yektga yaqin masofada turib ham ushbu ob'yektning hamma qismlarini ko'z bilan ilg'ab olish mushkul. Tasvirlash jarayonida chamalash orqali masofani to'g'ri tanlay olish, ko'rish maydonini to'g'ri belgilash rassomdan mahorat talab etadi.

Ufq chizig'i deb, ko'z balandligidan o'tadigan nurga aytiladi. Qog'ozni gorizontal holatda ko'zimiz darajasigacha ko'tarib, ufq chizig'ini aniqlashimiz mumkin.

1. Ufq chizig'idan yuqorida.
2. Ufq chizig'idan pastda.
3. Ko'zimiz nuri balandligida (ufq chizig'i balandligi darajasida).

Ufq chizig'i har doim ko'z nuri balandligidan o'tadi. Agar biz yuqoriga chiqsak u biz bilan ko'tariladi. Pastga tushsak ufq chizig'i ham pastga tushadi.

Fazoviy perspektiva deb buyumlarning fazo (bo'shliq) ta'sirida o'zgarib (qisqarib) ko'rinishiga aytiladi. Fazo-tiniq muhitdir. Lekin uning tiniqligi tabiatning turli hodisalari ta'sirida o'zgarishi mumkin. Masalan: havo namligi, atmosfera bosimining o'zgarishi, havodagi chang-to'zon ta'siri, havo bulutli ekanligi va boshqalar. Shuning uchun tasvirlanayotgan ob'ektning fazo bo'shlig'ida qanday joylashgani rang, nisbat, tus va undagi alohida bo'laklarning (yaqqol yoki xira) ko'rinishlariga keskin ta'sir etadi.

Fazo perspektivasi ob'yektning kunning qaysi vaqtida tasvirlanayotganligi (ertalab, kunduzi, kechqurun) yil fasllari (bahor, yoz, kuz) hamda atmosfera o'zgarishiga (quyoshli yoki bulutli) qarab ham o'zgaradi.

Fazo perspektivasining bir necha asosiy qoidalari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Rassomga yaqin bo'lgan buyumlar yaqqol, uzoqdagilari esa umumiy ko'rinadi. Tasvirda fazoni sezdirish uchun yaqin masofada joylashgan buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni esa umumiy tarzda tasvirlash kerak.

2. Fazo bo'shlig'ida (kengligida) joylashgan buyumlar chizuvchidan qanchalik uzoqda joylashgan bo'lsa, shunchalik xira ko'rinadi. Tasvirda fazoviy perspektivani to'g'ri ko'rsatish uchun uzoqda joylashgan buyumlarni biroz yengil, oldingi qatordagi buyumlarni esa yaqqol tasvirlash kerak.

3. Yaqin masofada joylashgan buyumlar fazoda yaqqol hajmli bo'lib ko'rinadi, uzoqdagilari esa xiraroq ko'rinadi. Tasvirlashda ham ushbu tartibga rioya qilmoq zarur.

4. Chizuvchidan uzoqroq joylashgan buyumlar atmosfera bosimi ta'sirida siyohrang, havorang va och tusda ko'rinadi. Fazo perspektivasini yanada kuchliroq ko'rsatish uchun yaqin masofada yaqqol ko'rinib turgan buyumlarni aniq, uzoqdagilarini esa ochroq tusda tasvirlash darkor.

5. Oldingi qatorda joylashgan buyumlar haqiqiy o'z tusida (rangida), uzoqdagilari bir xil bo'lib ko'rinadi. Fazoviy perspektivaning bu qonuni rassomga yaqin masofada joylashgan buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni esa umumiy tarzda, xiraroq qilib tasvirlashni talab etadi. .

Fazo perspektivasining ushbu qonun-qoidalariga rioya qilish talaba uchun juda muhim. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan qoidalarga talaba, qanday vazifa bajarishidan qat'iy nazar (portret, natyurmort, manzara, me'morchilik ko'rinishi va hokazo), amal qilishi shart.

Chiziqli konstruktiv tuzilish. Tasvirlanayotgan buyum sodda yoki murakkab bo'lishidan qat'iy nazar, u konstruktiv tuzilishga ega. Konstruksiya so'zi - tuzilish (qurilish) ma'nosini anglatib, rassom buyumni tasvirlashda bu qonunga amal qilishi lozim. Buyumni haqqoniy tasvirlash uchun uning chiziqli konstruktiv tuzilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiq. Har qanday buyumni tasvirlashda

chiziqli konstruktiv tuzilishga rioya qiling. Quyida uy jihozlari chiziqli konstruktiv usulni amalda qo'llagan holda qanday yaxlitlikda chizilishini ko'rish mumkin.

Buyumning konstruktiv tuzilishini chizish uning asosiy qismlaridan yordamchi chiziqlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Chiziqli konstruktiv tuzilish orqali buyumni to'g'ri tasvirlash perspektiva qonun-qoidalariga to'liq amal qilishni taqozo etadi.

Buyumlar hajmidan tashqari, balandligi va eniga egadir. Bunga buyumlarning nisbati deyiladi. Bir necha buyumlardan tashkil topgan qo'yilmaning o'z nisbatlaridan tashqari, katta-kichikligiga qarab, o'zaro nisbatlari mavjud. Realistik tasvirlashda buyumlar nisbatini to'g'ri aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Buyum nisbatlarini to'g'ri aniqlash va tasvirlash quyidagi usulda amalga oshiriladi. Masalan, oddiy memorchilik bo'lagini olaylik. Uning balandligi eniga nisbatan kattaligini aniqlash uchun qo'lga qalamni ushlab uzatgan holda memorchilik bo'lagini kichik tomoninining o'lchamini qalamda bosh barmoq bilan belgilab, me'morchilik bo'lagi balandligiga qo'yib taqqoslaymiz. So'ngra ushbu topilgan nisbatni qog'ozda belgilaymiz. Shu usulda bir guruh buyumlardan tashkil etilgan natyurmort yoki boshqalarning o'zaro nisbatlarini to'g'ri topish mumkin.

Hajm har bir buyum o'z hajmiga ega. Uning hajmi qismlari, balandligi, bo'yi va enining mavjudligi bilan belgilanadi. Agar buyumning hajmi to'g'ri to'rtburchaklardan iborat bo'lsa, uning hajmi ham tekis yuzadan iboratdir. Egri chiziqlardan tashkil topgan buyumlar (shar, konus, silindr va boshqalar) tekis yuzalilarga nisbatan ancha hajmdor hisoblanadi. Bu shakllar kontur chiziqlar vositasida chiziladi. Buyum shaklini aks ettirishda kontur chizig'ining ahamiyati katta. Buyumning tuzilishi, nisbatlari va boshqalarni tasvirlashda rassom kontur chiziqlardan foydalanadi.

Buyum to'g'ri to'rtburchakdan iborat bo'lsa (kub, piramida, prizma va boshqalar), uning hajmi to'g'ri chiziqlar vositasida chiziladi. Uning konturlari egri chiziqlardan iborat bo'lsa, hajm ellips, aylana shakllar orqali tasvirlanadi.

Buyumni hajmdor tarzda tasvirlash unga to'g'ri rang berish orqali bajariladi. Qirrali buyumlarda, masalan, kub hajmini to'g'ri tasvirlashda ko'pincha talabalar

xatoga yol qo'yadilar. Talabalar kubning hajmini yorug'-soyalar vositasida bajarish jarayonida uni yanada yorqinroq aks ettirish uchun kubning qirralarini kontur chiziq bilan alohida bo'rttirib ko'rsatadilar. Bu mutlaqo noto'g'ri. Tabiatda qirrali buyumlar bir-biridan tus jihatidan och va to'qligi bilan farqlanadi. Kub yoki boshqa qirrali buyumlarning soya qismidagi qirrasini yorug' qismidagi yuzadan tus jihatdan kuchliroq ekanligi bilan xarakterlidir.

Dumaloq shakldagi buyumlar hajmi ellips, aylana chiziqlar orqali chiziladi. Dumaloq hajmga ega buyumlarning ekvator qismi tus jihatdan kuchliroq tasvirlanadi

Qirrali buyumlarda bo'lgani kabi, sharsimon buyumlarning chekkalari ham quyuk konturda chizilmaydi. Uning turgan holatiga ko'ra yorug' va orqa fondagi soyalar chegarasi bor xolos.

Bugungi kunda kasb hunar kollejlari ta'lim-tarbiya olayotgan talaba kelajakda ishchi, xizmatchi, dizayner, konstruktor, muhandis, shifokor, o'qituvchi, huquqshunos yoki harbiy mutaxassis yoki biron-bir sohaning yaratuvchisi bo'ladi. Ularning har biri xizmat yuzasidan u yoki bu mavzuda rasm chizishi, undan foydalanishi lozim bo'ladi. Hatto uy bekasi ham rasmni ko'ra olishi, tushunishi kerak. Hozirgi davrda har bir erkak zoti mashina haydashni biladi, texnika bilan shug'ullanadi, uy bekalari esa dazmol, tikuv mashinasi, radio, televizor, kir yuvish mashinalari, muzlatgich, elektr plita, sut, qaymoq olish mashinalari kabi yuzlab texnik buyumlarni ishlata olishadi. Bu asbob-uskunalarini ishlatish va ularni sozlash uchun tasviriy san'atdan bilim-malaka darkor. Shu boisdan har bir odam rasm chizishni, grafik tasvirlarni bilishi maqsadga muvofiqdir.

Har bir shaxsning tasvirlash bilimiga ega bo'lishi shaxsning o'ziga ham, jamiyatga ham suvdek zarur. Shunga ko'ra, fransuz faylasufi Didro bundan qariyb 300 yil avval "Qaysi bir mamlakatda rasm chizishni o'qish-yozish kabi bilsalar edi, bu mamlakat barcha sohalarda har qanday mamlakatni quvib yetadi va ortda qoldiradi" degan edi.

Tarix shohidki, jahonga mashhur geograflar, tarixchi, adabiyotchi, shoir,



yoʻzuvchilar, konstruktor va boshqa soha allomalari rasm chizishni juda yaxshi bilishgan. Shunga koʻra Beruniy, Ibn Sino, Ulugʻbek, Gyote, Gyugo, Anderson, Pushkin, Tagor, Tyan-Shanskiy, Mikluxo-Maklay, Mendelejev kabi turli soha ijodkorlari rasm chizish bilan jiddiy shugʻullanib kelishgan. Taniqli oʻzbek xonandasi B. Zokirov yaxshigina rassom boʻlgan.

Xullas, har bir sohaning ijodkori uchun rasm chizishni bilish unga katta ijodiy imkoniyat va oziqa bergan.

Agar har bir oʻqituvchi rasm chizishni bilganda edi, u dars berishda yuksak samaralarga erishardi. Dars mashgʻulotlarini oʻzlashtirish ham talaba uchun juda oson va yengil boʻlardir, hatto yaxshi oʻzlashtirmaydigan talabalar boʻlmas edi.

Bugungi kunda jamiyat kishilariga grafik bilim va malaka berish tasviriy sanʼat oʻquv fani zimmasiga qoʻyilgan. Bu fan oʻzining dars va mashgʻulotlarida insonlarga grafik bilim va malakalar berish vazifasini amalga oshiradi. Maktabda va boshqa oʻquv maskanlarida tasviriy sanʼatdan boshqa fan bu vazifani bajarmaydi va bajara olmaydi ham. Tasviriy sanʼat oʻquv fani bugungi talabaga oʻzining besh turi boʻyicha grafik bilim va malaka beradi, ular:

- Borliqni idora qilish;
- Badiiy qurish va yasash;
- Sanʼatshunoslik asoslari;
- Naturaga qarab tasvirlash;
- Kompozitsion faoliyat mashgʻulotlariga boʻlinib, bu mashgʻulotlarda talabalarga asosan grafik bilim va malaka beriladi.

Bu mashgʻulotlarda talabalar shaklni koʻrish, yana natura va obyektning kuzatish zaruriy elementlarini tanlash, ularni tasvirlash, narsa va buyumlar ranglarini tahlil qilib, ularni ifodalash malakalarini olishadi. Narsaning oʻziga qarab rasm chizishda talaba tasvirlashning eng asosiy elementi — koʻrinib turgan narsaning rasmini chizishga oʻrganadi, Yana naturaning shakli, tuzilishi, rangi, yorugʻ-soyalarni yaxshilab kuzatadi, ularni idrok

etib, ong faoliyatida tahlil qiladi. Shu jarayonda naturadan olingan tasavvur asosida uning rasmini qog'ozga tushiradi. Bunda talaba, eng avvalo, shakl birligini, so'ngra rangini, yorug' - soyalarni tasvirlaydi.

Narsaning o'ziga qarab rasm chizish barcha boshqa o'quv mashg'ulot turlarining asosi bo'lib, ularga ilmiy va amaliy zamin yaratadi. Bu rasm chizishning «alifbo»si va realistik rasm chizishning asosi deyiladi. Me'morchilik bo'yicha rasm chizishda talaba narsa, voqea, obyektlarni erkin, ijodiy ruhda tasvirlab, rasm chizadigan badiiy - ijodiy metodlarda ish olib boradi. Bunda ko'proq umumiylikka erishiladi. Narsa va voqeani o'zgartirib, o'zining bilimi, tasavvuri va tushunchalari asosida rasm ishlaydi. Bu mashg'ulot talabalarning grafik bilim va malakalarini mustahkamlaydi, takomillashtiradi. Badiiy ijod qilishga o'rgatadi, realistik rasm chizishning nazariy va amaliy asoslarini o'rgatadi.

Kasb-hunar kollejlarining tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishda talabalarning ko'rish xotirasi, borliqni idrok etish, go'zallikni his qila bilish, ma'naviy dunyo qrashini kengayishi, mehnat qilish qobilyatini rivojlanishi, vatanga muhabbat kabi juda ko'plab ijobiy qobilyatlarini rivojlanishida xizmat qiladi.

#### **1.4. Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishda tasvir vositalari va rang munosabatlari bilan ishlash.**

Tasviriy san'at asarlari har doim kishilar ruhiyatiga tasir etib kelgan. Jozibador ishlangan rasmlar, haykallar, ayniqsa, xalq hunarmandchiligi asarlari bizni qoyil qoldiradi. Ularni kim va qachon ishlaganligiga beixtiyor nazar tashlaysiz. Eng muhimi ular qanday bajarilgan? Amaliy va tasviriy san'at sirlari nimalardan iborat? Ana shunday savollar bilan qiziquvchi yoshlar, ota-onalar oz emas. Lekin rasm chizishni barcha xoxlovchilar ham o'rganib olishlari ham mumkin. Buning uchun qiziqish va ishtiyoq, qunt va toqat bo'lsa bas, bunday qiziqarli va mashg'ulotni rasm chizishga ishtiyoq bilan to'lib toshgan bolalikdan boshlansa, nur ustiga al'o nur bo'ladi. Shunday qilib, rasm chizish uchun nima qilish kerak va rasm chizishni nimadan boshlash kerak? Avvalo rasm chizish uchun kerak bo'ladigan asbob, qurol va materiallarni tayyorlab olish ish joyini jihozlash, tasvirini chizish, mo'ljallangan naturalarni tanlab olishi lozim.

Rasm chizishda asosiy ifoda vositasi bo'lgan chiziqlarni chizish uchun ko'pincha turli qattqlikdagi va yumshoqlikdagi qalamlardan foydalaniladi. Dastlabki mashqlar qalin va zich oq qog'ozlarda bajariladi. Qalamlarning T(tvyordiy-qattiq) M(myagkiy-yumshoq) MT(myagkiy tvyordiy-o'rtacha)lar ishlatish mumkin. Bulardan yumshog'i (2M, 4M) qog'ozni kir qiladi. Qattig'i esa (2T, 3T) qog'ozga botib o'chirilganda iz qoldiradi. Qalamni ishga tayyorlash uchun uning uchini yozuvi yo'q tomonidan yaxshilab chiqarib olinadi. Qog'ozlarning ancha pishiqrog'i ya'ni chiziqlarni uchirganda uvalanmaydigan iflos bo'lmaydigani qulay. Qog'oz o'lchamini ixtiyoriy tanlash mumkin. Bundan tashqari yumshoq o'chirg'ich, qalamtarosh qog'ozni quyib chizish uchun taxtacha, knopka kerak bo'ladi. Agar taxtacha o'rniga molbertdan foydalanilsa chizish uchun ancha qulay bo'ladi. Rassomlar rasm chizish uchun asos bo'lgan har bir obyektini odam va barcha jonivorlarni uy-ro'zg'or va texnika buyumlarini me'morchilik binolari va qurilish inshootlarini tabiat va borliqning boshqa elementlarini natura deb ataydilar. Agar naturalarni oddiy va murakkab naturalarga ajratadigan bo'lsak;

geometrik shakillardan iborat naturalarni prizma, piramida, konus, slindir kabi shakillardan tashkil topgan uy-ro'zg'or buyumlari bino elementlari mashina detallari va boshqalarni oddiy naturalar; naturalarda geometrik shakillarning bir-biriga kirishib buzilib yoki bioshakillarga aylanib ketishi odam va turli jonivorlar kiyim-kechak matolarning burishib turishi dropirovka va boshqa shakillar murakkab naturalar deyiladi. Rasmni naturaga qarab xotirada qolgan o'ylab xayolga keltirilgan obrazlar asosida ham chizish mumkin. Rasm chizishni endi o'rganuvchilar uchun eng asosiysi naturaga qarab rasm chizish maslaxat beriladi, chunki naturadan qarab chizishni yaxshi bilmay turib o'ylab ham xotira asosida ham yaxshi chizish mumkin emas.

Rasm chizish uchun naturadan istalganini tanlash mumkin. Lekin endi rasm chizishni o'zrganayotganlar uchun eng oddiy va kam buyumlar (natyurmort) rasmini chizishdan boshlashni maslahat beriladi.

Tabiat va turmushda uchraydigan istalgan naturaning yoki naturalar majmuasini chizish uchun tanlanishi kompazitsiya deb aytiladi va bu so'z san'at olamida juda keng manoda ishlatiladi. Oddiy natyurmort kompazitsiya oddiy naturalar yig'indisi bo'lsa murakkab natyurmort va murakkab kompazitsiyalar murakkab naturalardan tashkil topgan bo'ladi. Chizayotgan rasm risoladagidek chiqishi uchun ish joyini yaxshilab jixozlab olish kerak bo'ladi. Birinchi navbatda naturaning va chizilayotgan rasmning yaxshi yoritilishini taminlash zarur. Naturaga to'g'ri qaragan holda o'tirish lozim. Natura detallarini chizganda qiynalib qolmaslik uchun rasm chizuvchi bilan natura oralig'i to'g'ri tanlanishi kerak. Qog'oz taxtacha yoki molbertga knopka bilan mahkamlanadi. Qog'ozning joylashishi ko'zdan 30-40 sm masofa uzoqlikda qarash yo'nalishiga kundalang bo'lishi lozim. Rasm chizish uchun kerakli narsalar taxt qilinib naturalar (natyurmort qismlari) tanlangan bo'lsada chizishni boshlashga shoshilmaslik kerak. Avvaliga qalamni to'g'ri ishlata bilishni o'rganish rasmda asosiy ma'no va ifodani ochib beruvchi chiziqlar to'g'risida qisqacha ma'lumot olish natyurmort kompozitsiyasini to'g'ri tanlay bilishni o'rganish tavsiya etiladi. Rasm chizishda chiziq va chiziqcha (shtrix)lar asosan qalamni ikki xil usulda ishlatish bilan

bajariladi. Yengil va nozik chiziqlar bilan naturaning homaki konturi chizgisi qalamni yana ham qiyshaytirib qalin yengil chiziqchalar bilan esa soyalar ikkinchi plandagi tekisliklar bajariladi. Shakllar chiziqchalar esa kalta ingichka aniq chiziqlar bilan beriladi. Rasm chizishda qay usulni qo'llansa ham qalamni qo'lda qattiq ushlamasdan bo'sh erkin holda ishlatish kerak. Mahorat oshgan sayin qalamni tutish va ishlatish ham sayqal topa boradi. Chiziq qalam bo'r va boshqa shu kabilarning qog'oz yoki boshqa materialdan yurishidan hosil bo'lgan izdir. O'rniga quyib ishlatilgan chiziqchalar esa sekin asta naturaning qog'ozdagi aksiga aylana boradi. Naturaning to'liq tasviri hosil bo'lganicha ish shu yusinda davom etib boradi. Qog'oz varag'iga naturani to'g'ri kompanovka qilishda shablon ramkadan foydalanilsa bo'ladi. Buning uchun qog'oz varag'i o'lchami nisbatlarini saqlagan holda kichik karton qog'ozga o'lcham moduli yasab olinadi. Bu modulda ichki ramka o'rniga teshik ochiladi. Bu shablon ramkani ko'zga yaqinlashtira borib kompanovkani tez va soz topish mumkin. Shablon ramka tabiatga qarab kompozitsiya izlashda ham qo'l keladi.

Me'morchilikni tasvirlashda kerakli o'quv qururollari va ulardan foydalanishda akvarel bo'yog'ini ham o'z o'rni bor. O'rta Osiyoda akvarel kitoblarni chiroyli qilib bezash maqsadida qo'llaniladi. O'rta Osiyo rassomlari ichida ayniqsa, Kamoliddin Behzod kitoblarga akvarel bilan miniatura hamda illustratsiyalar ishlashda shuhrat qozongan.

Akvarel bilan ishlash usullarining murakkablashuvi, takomillashuvi uning turlarining ko'payishiga va xilma-xillashuviga olib keladi. Hozir akvarelning bir qancha turlari mavjud. Chunonchi, qattiq, yumshoq va xamirsimon holdagi akvarellar Bog'lovchi emulsiya tayyorlanadigan moddalarni bo'yoq rangini o'zgartirmaydigan, qog'ozga surtilganda tekis yotadiganlaridan foydalaniladi. Boglovchi moddalar asosan, olcha, olxo'ri va boshqa daraxtlarning shiralaridan tayyorlanadi. Daraxt shirasidan masalan, olcha shirasidan juda osonlik bilan eritma tayyorlanadi. Shuningdek, bo'yoqning tez qotib qolmasligi, pishiqligini va suvda eruvchanligini oshirish uchun unga asal, dekstrinlar miqdorda olinishi lozim.

Akvarel bo'yoqlarida ishlashning o'ziga xos texnologiyasi mavjud bo'lib, unga amal qilinmasa tayyorlangan ishlarning sifatiga putur yetishi mumkin. Biz akvarel bo'yog'ida biror naqshni yoki bezakni bo'yashimizdan oldin, uning chiziqli tasvirini tayyorlab olamiz. So'ng, bo'yashga o'tamiz.

Mo'yqalamda bo'yoq olinayotganda uni haddan tashqari qattiq ishqalash mumkin emas. Aks holda mo'yqalam yedirilib ketishi mumkin. Olingan bo'yoq qavati qog'oz sirtiga yupqa qavat tarzida surtilishi lozim. Agar bo'yoq qavati haddan tashqari quyuq bo'lsa, qog'oz sirti ko'rinmay qoladi va akvarel bo'yog'ida ishlash texnikasi qo'pol ravishda buzilgan bo'ladi. Lekin, akvarelda naqshlar va bezaklarni bo'yayotganda bu tartibga boshqacharoq tarzda rioya qilinadi. Naqshlar va bezaklarda bo'yoqlarning turli-tuman tuslaridan ham foydalaniladigan bo'lganligi sababli, ularning tuslarini ko'proq yoki kamroq surtish orqali ochlashtirish yoki to'qlash mumkin. Chunki, bo'yoqlarning juda och tuslarini hosil qilishda guashning oq bo'yog'i ham qo'shib ishlatiladi. Demak, o'z-o'zidan mazkur bo'yoq aralashgan rang tuslari yuzaga qalin qoplam bo'lib yotadi.

Akvarelda naqsh yoki bezak ishlanayotganda rang tuslarining toza bo'lishiga e'tiborni qaratish kerak bo'ladi. Bir bo'yoq olinganidan so'ng ikkinchi xil bo'yoq olinishidan oldin, mo'yqalam tozalab yuvib tashlanadi. Shunday qilinsa, bo'yoq tuslari toza va chiroyli ko'rinishda bo'ladi.

Suv bo'yoqlaridan biri bu guashdir. Guash italyancha — suvli bo'yoq degan ma'noni bildiradi. Kukun bilan suv yelim boglovchilari, ya'ni aqoqiy, bug'doy kraxmali, dekstrin va boshqalar hamda oq bo'yoq (belila) aralashmasidan iborat bo'yoq. Qog'oz, karton, faner, mato, suyakka naqsh, tasvir ishlashda qo'llaniladi. Guash bo'yog'idan o'rta asrlardayoq Osiyo va Yevropaning ko'p mamlakatlarida, asosan, kitob miniaturasidan foydalanib kelingan. Guash akvareldan oq bo'yoq qo'shilganligi, bo'yoq qatlamining qalinligi va bo'yoq qatlamlarining xiraligi bilan farq qiladi. Hozirda guash plakat, amaliy , grafika va kitob grafikasi, teatr dekoratsiyasi eskizlari, bezak ishlari, miniatura, mahobatli rangtasvir, naqqoshlik va boshqalarda keng

qo'llanib kelinmoqda. Guash bo'yoqlari plastmassa, shisha bankachalarda, tyubiklar holida ishlab chiqariladi.

Guash bo'yog'ida ishlashda ham ana shu tartiblarga rioya qilinsa-da, uning tuslari yuzaga o'ta qalin bo'lib qoplanishi bilan farq qiladi. Buni unutmazlik lozim-ki, guash bo'yoqlarining tarkibida oq bo'yoq moddasi mavjud bo'lganligi sababli uning tuslari keyinchalik, tekislik yuzasiga surtilgan bo'yoq qurugandan so'ng ochlashib ketadi. Shunga ko'ra olinadigan rang tuslari belgilangan darajadan ancha to'qroq tuslarda bo'lishi lozim. Aks holda bo'yoq qavati ho'lligida to'q bo'lgan rang tuslari keyinchalik ochlashib ketadi va ko'rinishini buzadi.

Guash bo'yog'ida ishlangan naqshlar va bezaklar rang tuslarining ancha xiraligi bilan akvareldan farq qiladi. Ular ana shu xarakterli xususiyatlardan kelib chiqqan holda ko'pincha aralashtirib ishlatiladi. Guash bo'yog'i quyuqligi jihatidan moybo'yoqlarga o'xshab ketsa-da, lekin, faqat qog'ozlar sirtigagina bezaklar ishlash mumkin bo'ladi. Ba'zi hollarda guash bo'yog'idan miniatura ishlashda, qutichalar sirtini bezash va lok bilan qoplash orqali foydalaniladi.

Guash bo'yoqlari bilan ishlashda akvarel, tempera va moybo'yoqlari uchun qo'llaniladigan uslublardan foydalaniladi. Naqsh ishlashda, rang tuslarini har xil ko'rinishini hosil qilishda suvni ko'p qo'shib yuborilsa o'zini xususiyatini o'zgartirib, bo'yalayotgan yuza tekis chiqmay, ola-bula chiqadi.

Agar guash qurib, qotib qolgan bo'lsa, ustiga iliq suv, suyuq duradgorlik yelimi yoki PVA bo'yog'i qo'shiladi. Ikki yoki uch kun o'tgandan so'ng guash yaxshilab aralashtiriladi. Guash qumoq-qumoq bo'lib qolgan bo'lsa uni dokadan o'tkazib olish kerak. Guashga duradgorlik yelimi yoki PVA qo'shilishi sababi, u uning tarkibini mustahkamlaydi. Yana ishchi yuzani bo'yalgan joyi qo'lga yuqmaydigan bo'ladi.

Ish jarayonida guash idishlaridan oddiy tayoqcha yoki maxsus oddiy kurakchalardan foydalaniladi. Shu kurakchalar yordamida bo'yoqlar olinadi. Har bir guash bo'yoq rangiga alohida kurakcha ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Guash bo'yog'ini ishlatishda akvarel, mo'yqalam va maxsus guash bo'yog'i uchun akvarel mo'yqalamidan qattiqroq mo'yqalamlar ishlatiladi. Ko'pincha guash bo'yog'i uchun ishlab chiqarilgan yumshoq yoki yapaloq mo'yqalamlar ishlatib kelinadi.

Guash bo'yog'ida bezalgan buyumlarning ustidan lok surkab, qoplanadi. Surtilgan lok hisobida naqshlarning rangi oz miqdorda to'qlashadi. Shu to'qlashish hisobini har doim esdan chiqarmaslik lozim.

Tasvirlar sirlarini o'rganishda tempera bo'yoqlaridan foydalanishni ham bilish zarur bo'ladi. Tempera iotinch a temperare (temperari) so'zidan olingan bo'lib, aralashtirish degan ma'noni anglatadi. Tempera ham suv bilan ishlatiladigan bo'yoqlar turkumiga kiradi. Hozir kunimizda esa temperaga bo'lgan qiziqish yanada oshdi. Bunga sabab temperaning namga, harorat va tashqi muhit o'zgarishlariga chidamliligidir. Lekin, uning kamchiligi shundaki, qo'yilgan bo'yoq qavati haddan tashqari qurib ketsa, qattiqroq bosilganda yoki turtilganda grunt dan tushib ketishi mumkin.

Tempera ikki qismdan: bog'lovchi element bo'lmish tabiiy yoki sun'iy moddadan va bo'yoq moddasidan tashkil topadi. Bog'lovchi elementlar emulsiyasining tarkibiga qarab sariqli tempera (tuxum sarig'i qo'shilgan tempera), oqli tempera (tuxum oqi qo'shilgan tempera), butun tuxum qo'shilgan tempera, moytuxumli tempera, kazeinli tempera va boshqa turlarga bo'linadi. Temperaning bu turlari bir-birlaridan faqat bog'lovchi elementlarining tarkibi bilangina emas, balki o'ziga xos xususiyatlari bilan ham ajralib turadi.

Temperalar odatda, sanoat usuli bilan kichik va katta tyubiklarda ishlab chiqariladi. Ularni uzoq vaqt saqlashga to'g'ri kelsa, quyosh nuri tushmaydigan salqinroq joylarga qo'yish tavsiya etiladi.

Moybo'yoq bo'yoqlarning bir turi bo'lib, o'ziga xos tomonlari bilan farqlanadi. Moybo'yoqlar bilan ishlashdan avval ularning o'ziga xos xususiyatlarini puxta bilib olish zarur.

Moybo'yoqlar bilan ishlashni puxta bilgan talaba tasvirlash tilining o'ziga xos tomonlarini bilib oladi. Moybo'yoq va loklar XV asrdan boshlab ishlatib



kelinadi. Rangtasvirda qo'llanishini esa Niderlandiyalik aka-uka rassom Van Deyklar boshlab berganlar. Ular zig'ir moyi juda tez qotishini bilib qolganlar va keyinchalik bo'yoq kukunini shu moyda qorishtirib, juda tiniq va yorqin bo'yoqlar hosil qilishga muvaffaq bo'lganlar. Ular moybo'yoq texnikasini rivojlantirishga ham katta hissa qo'shganlar.

XVI asr rangtasvir san'atida moybo'yoq rangtasviri asosiy o'rinni egallagan. Moybo'yoq bilan ishlash 1920-yillardan so'ng rivojlana boshladi. Keyingi vaqtlarda moybo'yoq bilan tasvir ishlash keng miqyosda tarqaldi. Moybo'yoq uncha suyuq bo'lmagani uchun, akvarel kabi mo'yqalamdan va tasvir tekisligi yuzasidan oqib ketmaydi. Uning asta-sekin qurish xususiyati esa matoga yoki biror yuzaga qo'yilgan bo'yoq birikmasiga ancha uzoq vaqt mobaynida ishlov berish imkoniyatini yaratadi. Moybo'yoqlarni ishlatish akvarel bo'yoqlarga nisbatan qulaydir. Ularning yana qulayligi shundaki, mabodo rang tusi noto'g'ri topilgan bo'lsa, uni qaytadan ishlash imkoniyati bor. Moybo'yoq matoga yoki biror yuzaga qo'yilgan bo'yoq qurigach, o'zining dastlabki rangini o'zgartirmaydi. Akvarel yoki guash bo'yoqlari kabi oqarmaydi.

Moybo'yoq suyuq va quyuroq holda, yupqa tiniq qatlam tarzida yoki quyuk holda ishlatilishi mumkin. Lekin, boshqa bo'yoqlarga, ya'ni akvarel, guash va hokazoga nisbatan moybo'yoqni ishlatish uchun zarur jihozlar ancha murakkab.

Moybo'yoqlarni ishlatishda ularni suyultirish uchun erituvchi moddalardan foydalaniladi. Buning uchun maxsus tayyorlangan erituvchilar — penin, 1 va 2 raqamli suyultirgich lok Moyli bo'yoqlar yordamida ishlangan tasviriy san'at asarlari uzoq yillar davomida saqlanadi va kishilar kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Turli hiltasvirlash vositalari orqali me'morchilikning tasvirlashni o'ziga xos qonun-qoidalari bor. Bunda esa rang munosabatlarini o'rni beqiyosdir. Yosh rassom me'mochilik obidalarini ranglar vositasida tasvirlashda yorug'-soyalarni aniq ko'ra bilsa, u rang lavhani to'ri va moxirlik bilan bajara oladi deb bo'lmaydi. U aloxida me'morchilikning yorug' soyalari, xajmlarini ham

yuzaki ko'r- ko'rona ko'chirib tasvirlashi mumkin, ammo aks ettirishda eng muhim sifatlarni, ya'ni materiyallikni, fazo va yoritilish xollati kabilarni mukammal ko'rsata olmaydi.

Xaqqoniy rang tasvir sir – asrorlarini chuqur egallash uchun badiiy ta'limning boshidanoq uning asosiy ikkita xususiyatidagi maqsad va ma'nosini tushinib yetish zarurdir. Faqat shundagina yosh rassom ta'lim yo'liga to'g'ri tusha oladi, uning har bir yaratgan yangi mashqlari rangtasvir sifatlari bo'yicha mukammalikka erishadi.

Birinchi xususiyat shundan iboratki me'morchilik rangtasvirini savodli tasvirlash, uning xajmdorlik, fazoviy va materiallik sifatlarini ko'rsatish, tabiatdagi rang munosabatlarini ko'rib idrok qilish orqali palitradagi chegaralangan bo'yoqlarga mutonosiblikda o'tkazish metodiga asoslanadi. Ranglavxadagi rang munosobatlari mazmuni rassom nigohi bilan qabul qilgan munosabatlar mohiatidan kelib chiqadi. Biroq, rang lavhadagi rang munosabatlarini yoritilishning umumiy tusi va rangli xolatini hisobga olgan xolda amalga oshiriladi. Munosabat bilan ishlash metodi - rangtasvir savodxonligining asosiy qonunidir. Rassom - shunday insonki, u nafaqat nisbatlarni kuchli xus etish qobilyatiga, balki rang munosabatlarini ham sezishga qodir.

Ikkinchi xususiyat shundan iboratki, me'mochilik obidalarini tasvirlashda rang munosabatlarini idrok etish yaxlit taqqoslash bilan aniqlanadi.

Aynan shu ikki kasbiy maxorat hususyatlarini mukammal egallash natijasida yetuk xususiy tasirchan tasvir holatini yaratish mumkin.

Xar bir rangni “xuddi o'ziday” va boshqalardan aloxida qilib nusxa ko'chirish mumkin emas. Bunday nomaqbul husxa ko'chirish natijasida ranglarning bir-biriga bog'liqligini, ularning o'zaro farqlarini aniqlab bo'lmaydi. Shu tariqa nusxa ko'chirish davom etaversa, qarashning jonli taassurotidan yiroq tasvir paydo bo'ladi. Xuddi qalamtasvirda barcha katta kichik o'lchamlarning nisbatan bir-biriga mos va mutanosib holda tasvirlangani kabi, ranglavhadagi hamma bo'yoqlar ham bir–biriga nisbatan to'g'ri olinishi zarur. Rangtasvirdagi rangni ham

faqat uni atrofda o'rab turgan ranglar bilan solishtirib mutanosiblik munosabatlarini xisobga olgan xolda tasvirlash lozim .

Taniqli rasomlar doimo ta'kidlab shunday g'oyani ilgari surganlar; faqatgina munosabatlar bilan ishlab rangtasvir sirlarini qoidali, savodli egallash mumkin . Rassom va pedagog N. P. Krimov shunday degan; "Rang rangtasvir munosabatlarining mosligi bilan paydo bo'ladi. Agar rang tasvirda munosabatlar noto'g'ri bo'lsa, eng toza yorqin ranglar ham chalkash va tushunarsiz bo'lib ko'rinadi". Taniqli rassom R. Ahmedov munosabatlar metodi haqida shunday degan; "Yorug'lik va rang munosabati hamda tuslarini aniq ko'rsata olish rangtasvirning asosini tashkil qiladi".

Rangli tasvirni savodli ifoda etish uchun hafaqat tusli balki buyumlarining rangli farqlarini kuzatish vaqtida qanday qabul qilinsa tasvirlash jarayonida ham shunga erishish lozim.

Rang munosabatlari holati buyumlar bilan atrof–muhitining bir-biriga bog'liqligini aks ettiradi, shuning uchun tasvirloyotgan me'morchilikning tusli va rangli munosabatlarining birligi, maromiga yetgan, koloritli yechimga kelishiga imkon yaratadi. Me'morchilik shaklini rangli munosabatlarini to'g'ri tasvirlash uchun birinchi novbatda uning rangli tusini (xavo rang, sariq, yashil va x.k), ikkinchidan bu ranglarning yorug'lik munosabatlaridagi farqlari (tus jixatidan ) ya'ni, qanchalar bir biriga nisbatan ochroq yoki to'qroqligi, uchinchidan, har bir buyumdagi ranglarning boshqalarga nisbatan yorqinligi va to'yinganligini aniqlash zarur.

Ish jarayonida shuni doimo yodda tutish kerakki, xar bir rang yorig'likda, soyada yarim soyada faqat o'zi emas, balki boshqa ranglarlarga bog'liqligi bilan muhimdir.

Muximi, uning umumiy ranglar qatorida ishtirok etib, boshqalardan ajralib turishidir. Rassomni faqat ranglar farqi va munosabatlar qiziqtirishi zarur. Shuning uchun rang tasvir jarayoni-me'morchilik obidalarini rangtasvida tasvirlashda doimiy solishtiruv, taqqoslash, yani munosabatlar bilan ishlash hisoblanadi. Biroq o'sha xolatda ranglavxada kuzatilayotgan ranglar farqini faqat yorug'ligi bo'yicha

emas (tus bo'yicha) balki, yorug'lik kuchi ya'ni tuyinganligini ham saqlab qolish zarur va muhimdir. Rangtasvirning xaqqoniyligi ranglardagi nozik farqlarning aniqligidan emas, balki yorug'lik va rang munosabatlarini to'g'ri tasvirlash natijasidir. Tusi va kuchi bo'yicha noto'g'ri olingan ranglar (yani yorug'ligi va to'yinganligi) munosabati fazoviy planda tasvirni chalkashuviga va ayniqsa, tasvirlanayotgan buyumlarning materiallik sifatiga va yorug'lik xolatlarini ifodalashda salbiy ta'sir ko'rsatadi. "Kenglikdagi materiallik rangtasvirida – deb aytgan N.P.Krimov,- rang va tus ajralmas. Tus bo'yicha noto'g'ri olingan rang, rang emas, bu oddiy bo'yoq va u orqali kenglikda xajm materialligini tasvirlab bo'lmaydi". Shu tariqa rangni tusdan cheklab qo'yish mumkin emas, tasvirning xaqqoniyligi rang birligi bilan yorug'lik munosabatlari orqali belgilanadi. Ranglar munosabati usulidagi rangtasvir jarayonini musiqa oxanglariga qiyoslash mumkin. Ya'ni alohida tovushlar o'z-o'zidan xech narsani aks ettirmaydi, ammo boshqa oxanglar bilan mujassamlashganda zarur taassurotni beradi. Musiqiy asarni biroz pastroq yoki yanada balandroq oxangda yaratish mumkin. Ammo u yoki bu xolatda xam u o'zining zarur musiqiy oxang taassurotini saqlab qoladi. Ammo tovushlarning bir-biriga bog'liqligi buzilsa, oxang mavjudligi yo'qoladi. Xuddi shu xolatni rangtasvirga xam taqqoslash mumkin. Tusli va rangli munosabatlarni kuchli yoki kuchsuz yorug'lik va to'yingan ranglar yig'indisida ko'rish mumkin. Lekin shu bilan birga jismlarning tusi va rang kuchining naturadan obrazli ko'rishga mos ravishda bir biriga bog'liqligini saqlab borish muxumdur. Etyud o'ta sodda usulda va juda engil tusda bajarilishi mumkin. Zamonaviy me'morchilikda ranglar munosabatini xuddi tabiiy xolatdagi kuchi bo'yicha tasvirlash shart emas. Ammo, belgilab olingan tus bo'yicha eng och qismidan eng to'qqa qarab borish jarayonidagi mutanosiblikni saqlab qolish juda muhimdir. Aks xolda rangtasvir yaxlit bir butun garmonik taassurot qoldirmaydi.

Etyudda yorug'lik va tuyinganligi buyicha naturadagi munosabatlarga mos bo'lmagan rangni tanlash, bamisoli musiqadagi soxta nota kabidir.

V. I. Surikovning ranglar munosabatlari xaqidagi g'oyalarini puxta o'rgangan. P.P.Konchalovskiy shunday takidlaydi: "Naturadan aniq rang olish mumkin emas,

chunki har daqiqada yoritilishiga qarab rang o'zgarib boradi. Shuning uchun rang aynan kuchirilmasdan, faqatgina natura asosida yaratiladi". Ranglar munosabatlari ustalik bilan tasvirlanishi, tasvir texnikasining ifodaliligi, rassomning munosabatlariga asoslangan koloritni qurishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi. Ranglarning bog'liqligi munosabatlar ish uslubini rivojlantira borib, rassomlar ma'lum maqsadga yo'naltirilgan xolda kolorit kuchini muvaffaqiyatli qo'llab yuqori natijalarga erishganlar. Bular safiga M. Nabiev, G'. Abduraxmonov, B. Jalolov. J. Umarbekov, A. Mirzaev, A. Ikromjonov, I. Xaydarov, O. Qozoqov, B. V. Ioganson, P.P. Konchalovskiy, A. A. Plastov va boshqa rassomlarni kiritish mumkin. Inson umrining xar laxzasida uchraydigan rang uning ma'naviyatini shakllantirishda muxum o'rin tutadi. Chunki rang ruxiyatga xar daqiqada ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi mumkin.

Ranglarning hayotiy hamohangligini to'g'ri ochib ko'rsatish ancha qiyin ish. Bunga jiddiy mehnat nozik did va zo'r mushoqada orqali erishish mumkin.

### **1-bob boyicha xulosa**

Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishning umumiy tamonlarini o'rgatishda me'morchilik va uning tarixi haqida ma'lumotlar berib borish talabalarining dunyo qarashini har tamonlama kengayishiga yordam beradi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda memorchilik sohasida o'lkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Bunga misol qilib zamonaviy, jahon andozalariga mos ravishda qurilayotgan maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, aholi yashashi uchun ko'p qavotli imoratlar va shu kabi boshqa ko'plab qurilish va obodonlashtrish ishlarini aytish mumkin.

Zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizish yoshlarni mehnatga, aql-idrokka, tafakkur qilishga, ijod qilishga, go'zallikka intilishga o'rgatadi. Bugungi kunda tasviriy san'at odamlar va uning jamiyati uchun yuksak aql-idrok, chuqur bilim va tafakkur, go'zal turmush va e'tiqod yaratishini hamma yaxshi biladi. Shuningdek, tasviriy san'at yoshlarga faqat ilm-tafakkur, go'zal estetik

ideallar beribgina qolmay, yoshlarning eng muhim jihatlarini, ya'ni kuzatish, ko'rish, idrok qilish va tafakkur tasavvurlarini rivojlantiradi

Tasviriy san'at asarlari har doim kishilar ruhiyatiga tasir etib kelgan. Jozibador ishlangan rasmlar, haykallar, ayniqsa, xalq hunarmandchiligi asarlari bizni qoyil qoldiradi. Ularni kim va qachon ishlaganligiga beixtiyor nazar tashlaysiz. Eng muhimi ular qanday bajarilgan? Tasviriy san'at sirlari nimalardan iborat? Ana shunday savollar bilan qiziquvchi yoshlar, ota-onalar oz emas. Lekin rasm chizishni barcha xoxlovchilar ham o'rganib olishlari ham mumkin. Buning uchun qiziqish va ishtiyoq, qunt va toqat bo'lsa bas, bunday qiziqarli va mashg'ulotni rasm chizishga ishtiyoq bilan to'lib toshgan bolalikdan boshlansa, nur ustiga al'o nur bo'ladi.

Zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishda tasvir vositalari va rang munosabatlari bilan ishlashni ham bilish kerak. Me'morchilik shaklini rangli munosabatlarini to'g'ri tasvirlash uchun birinchi novbatda uning rangi tusini (xavo rang, sariq, yashil va x.k), ikkinchidan bu ranglarning yorug'lik munosabatlaridagi farqlari (tus jixatidan ) ya'ni, qanchalar bir biriga nisbatan ochroq yoki to'qroqligi, uchinchidan, har bir buyumdagi ranglarning boshqalarga nisbatan yorqinligi va to'yinganligini aniqlash zarur.

Ish jarayonida shuni doimo yodda tutish kerakki, xar bir rang yorig'likda, soyada yarim soyada faqat o'zi emas, balki boshqa ranglarga bog'liqligi bilan muhumdir.

## **II bob Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishning shakl va uslublari**

### **2.1. Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizishning o'ziga xosligi.**

Bugungi kunimizning dolzarb muamolaridan biri kelajak yoshlarimizni har tamonlama Vatanimizga foydasi tegadigan komil insonlar etib tayyorlashdir. Bu borada yetishib kelayotgan yosh avlodni ilk yoshlaridanoq qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olish kerak bo'ladi. Shuning uchun ularni kasbiy mahoratlarini shakllantirish ayni bugungi muammolardan biridir. Har bir inson tug'ilib voyaga yetar ekan, unda qaysidir bir kasbga nisbatan qobiliyati, qiziqishi, iste'dodi, talanti, iqtidori bo'ladi. Vatanimizning turli hududlaridagi yoshlar orasida tasviriy san'atga qiziqishi yuqori bo'lgan, tasviriy san'atni jon dilidan sevuvchi ulkan maqsadlar bilan barakat qiladigan yoshlar talaygina. Binobarin yoshlarning bunday qiziqish va intilishlarini vaqtida ilg'ab, uni to'g'ri yo'naltirish katta ahamiyatga egadir.

Tasviriy san'atga be'etibor, unga yuzaki qarovchilar, "Rasm chizish ham ishmi?" deguvchilar ham uchrab turadi. N.Oydinov o'zining "Rassom-o'qituvchilar tayyorlash muammolari" monografiyasida tasviriy san'atning o'rni beqiyos ekanini takidlab shunday yozadi: "Bir ko'z oldimizga keltirib ko'rsak, hiyobonlar, ko'chalar, sirk-bog'lar, hashamatli binolar, barcha-barchasini bezatilishi rassom va haykaltaroshlarning mashaqqatli mehnatlari evaziga amalga oshirilgan. Xonadonlarimizning ichki go'zalligi, maktablarimiz, kitob, gazeta- jurnallarning tasvirlar bilan mazmunan yanada jonlanishi, hatto bozorlar, savdo do'konlaridagi har bir xarid qilinadigan buyum va narsalarning bejirim rang-barang bezatilishi, umuman turli-tuman idishlardan etiketkalgacha e'tiborimizni tortadi. Gazmollar, kundalik liboslarning shakli shamoyili, rangi ro'yi rassomlarimiz mehnati evaziga boyigan. Bordiyu, shu narsalarning hammasini rassomlar mehnatisiz tasavvur qilib ko'raylik-chi, do'konlardagi, atrofimizdagi tasvirsiz, rangsiz savuq bir holatning guvohi bo'lamiz". Bu fikrlardan ko'rinib turibdiki,

hayotimizni tasviriy san'atsiz tasavvur etish qiyin ekan.

Tasviriy san'atning tur va janrlarida rassomlar ijod qilib kelishgan va hozirgi kunda ham ijod qilmoqdalar. Har bir rassom o'z ijodi faoliyati davomida me'morchilik ko'rinishlarini tasvirlamagan yoki uni tasvirlashga urinib ko'rmagan deb aytish qiyin. Rassomlar tamonidan tasvirlangan memorchilik ko'rinishlarini ko'rganimizda ijodkorning mahorat bilan yaratgan asaridan tasirlanamiz. Tasvirlash sirlarini qanday o'zlashtirgani bilan qiziqamiz. Imkoni bo'lsa bunday mahorat bilan chizilgan tasviriy san'at asarlarini qo'lga kiritish istagi ham paydo bo'ladi. Ayrim rassomlikni kasb qilmaganlarning ko'nglidan ham, shunday rasim chizisha olish ishtiyoqi, yoki men ham shunday rasm chiza olsaydim degan fikrlar paydo bo'lishi tabiiy. Tasviriy san'atda ma'lum darajada yutuqlarni qo'lga kiritish uchun tasvirlashga oid bilimlarni egallash kerak. Shuningdek qiziqish, intilish, o'z vaqtida mehnat qilish ham kerak bo'ladi. Shu bilan birgalikda tasvirlashda kerakli o'quv qurollari va ulardan foydalanish va ular haqida ma'lumotlarni yaxshi bilish kerak.

Me'morchilik ko'rinishlarini tasvirlash, va unga kerakli bo'lgan o'quv qirollaridan foydalanish ancha murakkab ishdir. Odatda rasm chizishni o'rganuvchilar naturadan rasm ishlashlari tavsiya etiladi. Bunda uy ro'zg'or buyumlaridan, geometrik shakllardan, o'quv qurollaridan, sport buyumlaridan va boshqa buyumlardan tashkil topgan natyurmortlardan foydalanadi.

Zamonaviy memorchilikni tasvirlashni o'rganishda xomaki rasmlar va ranglavhalar ishlashning o'ziga xos o'rni bor. Rasm chizishni mukammal o'rganmoqchi bo'lganlar xomaki rasmlar ishlamasdan puxta rasm chizishni o'rgana olmaydi. Xomaki rasmlarni muntazam ravishda ishlamaydigan talabada chizgan rasmida nuqsonlar ko'pligi sababli o'zi ishlayotgan tasviriga nisbatan sovuqqonlik paydo bo'ladi. Rasm chizishni o'rganishda xomaki rasm ishlashdan o'rinli foydalanish rasm chizish qobiliyatini oshiradi. Ayni damda uzoq muddatda chiziladigan amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik bo'ladi. Talabalarni amaliy mashg'ulotga tayyorlash uchun



ularni avvaliga bir oz muddat yengil xomaki rasmlar ishlash mashqlarini bajartirib olish kerak. Shunda rasm ishlovchilar asosiy tasvirlash mashqlarini bajarish uchun tayyor bo'ladi. Ushbu tayyorlikni bajarmaslik yoki unga e'tibor bermaslik rasm ishlash bosqichlarini sifatsiz borishiga va ishlangan tasviridan talabani o'zida ham ko'ngli to'lmasligiga sabab bo'ladi. Xomaki rasm va uning ahamiyati haqida tadqiqotchi B.Boymetov o'zining "Qalamtasvir" kitobida shunday yozadi: "Xomaki rasm ma'lum vaqt oralig'ida kuzatilayotgan natura haqida to'liq tasavvur berishni maqsad qilib qo'yadi. Xomaki rasmlar har xil davomiylikda, har xil ishlanishi, ish shart-sharoyitlari va rassomning o'z oldiga qo'ygan vazifalariga qarab yarim soatli, bir soatli, o'n minutli va hokazo bo'lishi mumkin.

Xomaki rasm - bu naturadan tezgina chizgi qilib olishdir; u talabani tez fikrlash, tasvirlashning eng ishonchli va mantiqiy vositalarini qidirib topishga o'rgatadi, kuzatuvchanligini rivojlantiradi".

Talabani xomaki rasmlarni o'z vaqtida bajarmasdan yurishi unga ancha qiyinchiliklar olib keladi. Rasm chizish jarayoni samarasiz kechadi. Undagi chiziqlar shakllar o'ylagan natijani bermaydi. Qalamtasvirida ish bajarish jarayonida o'chirgichdan me'yoridan ortiq foydalanish, chizilyotgan tasvirni qayta-qayta o'chirish natijasida qog'oz titiladi va kirlanadi. Ma'lum bir vaqt oralig'ida bajariladigan rasm chizish jarayoniga har qancha vaqt sarflansada, ish beo'xshov bo'lib qolaveradi. Bu jarayonga boshqacha nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo'lsak, talaba doimo o'z ustida ishlasa xomaki rasm va qalamchizgilarni muntazam bajarib borsa, to'g'ri bo'ladi. Shuningdek amaliy mashg'ulot darslarida yangi chiziladigan naturadan rasm chizish avvalida xomaki rasm ishlashdan boshlasa, ish jarayoni ijobiy bo'ladi. Bunda o'ylangan maqsad, chiziqlar, rasm chizish bosqichlari, o'z o'rnida jonlanaveradi. Shunda talaba har bir chiziqni qiynalmasdan topaveradi. O'chirgichdan ham kam foydalanadi, natijada qog'az deyarli titilmaydi va kirlanmaydi. Bu esa ishning sifatli va samaradorli chiqishiga olib keladi. Ayniqsa tajribalar shuni ko'rsatadiki,

qoralama va qalamchizgilarni muntazam ravishda bajarib yurgan talabalar rasm ishlash jarayonida ishni davom ettirilmagan qiyinlik bilan, qolmaydi.

Rasm ishlash jarayonining malum bosqichida talaba chizishdan to'xtab qolishi yoki ishni qanday davom ettirishni bilmay qolish undagi kamchiliklarni ko'ra olmay qolish holatlari uchramaydi. Yana shunga e'tibor berib qaraydigan bo'lsak bu talabalarda o'z ustida muntazam ishlagani tufayli, bilim, ko'nikma, malakalar shakllanib boradi. Buning natijasida chizayotgan rasmiga qancha vaqt ajratsa shunchalik jilolanib-jonlanib boraveradi.

Uzoq muddatli rangtasvir amaliy mashqlarini bajarishda, qalamtasvirda homaki rasmlar ishlash kabi rangtasvirda ham rangli etyudlar ishlab turishning ahamiyati kattadir. Rangtasvir darslarida talabaga uyga vazifa qilib rangli etyudlar bajarib kelish topshiriladi. Ayrim talabalar tasvirlashni yaxshi o'zlashtirishda rangli etyudlar ishlaganining ahamiyati yoq deb tushunadilar. Yaxshi rasm chizish uchun rangtasvir amaliy mashg'ulot darslarida chizgan rasmlari yetarli deb uylaydilar. Ana shuning uchun ham ular rangtasvir amaliy mashg'ulot darslarida yaxshi natijalarga erisha olmaydilar. Ishning ma'lum bir bosqichiga yetkazganlaridan so'ng xarchand urunmasinlar rasm chizishni qanday davom ettirishni bilmay boshi qotadi. Ustozlar tomonidan berilgan tavsiyalarga amal qilmaslik mana shunday qiyinchiliklarga, kerak bo'lsa o'zi ishlayotgan rasmdan ko'ngli to'lmasligiga olib keladi. Rangtasvirda yaxshi natijalarga erishish uchun ma'lum tartib qoidalarga rioya qilgan holda uzluksiz mehnat qilish bo'lajak rassomdan talab qilinadi.

Rangtasvir - xaqiqiy hayotni aks ettirib, tamoshabinning fikri va hissiyotlariga ta'sir o'tkazuvchi tasviriy san'at turlaridan biridir.

Biror bir satx yuzasiga, bo'yoqlar (moybo'yoq, tempera, akvarel, guash va boshqalar) bilan bajarilgan san'at asariga rangtasvir deyiladi. Rangtasvirdagi tasvirlar tasviriy satxda uzluksiz bo'yoq qatlamini hosil qiluvchi bo'yoqlar yordamida yaratiladi. Xattoki akvarel rangtasvirida qog'ozda bo'yoq tegmagan

joylar qolsa ham, tasvirning uzluksizligiga ta'sir qilmaydi, chunki bo'yoqlar bir-biriga singishib va aralashib ketishadi.

Rangtasvirning eng muhim ajralib turuvchi xususiyatlari shundan iboratki, unda shakl va masofaning tasviri, obrazlar va harakatlar faqat rang orqali ko'riladi. Rangtasvir uchun zarur bo'lgan rangni rassom palitrada aralastirib topadi, keyin bu bo'yoq kartina tekisligida rangga aylanadi. Bu yerda u rang tartibi - koloritni yaratadi. Ranglar aralashmasiga qarab u issiq va sovuq, quvnoq va g'amgin, tinch va harakatli, yorqin va to'q bo'ladi. Naturadagi rangda tasvirlash jarayoni o'z qonun qoidalariga ega. Ishning boshlanish qismida nimalar qilish, o'rtasida qaysi masalalarni xal etish va oxirlab qolganda uni qanday yakunlash kerakligini bilish zarurdir. Rangtasvirda quydagi asosiy maslallarni xal etish zarur:

- Umumiy tus va rang xolatlari va natura bo'yoqlarning bir-birga yaqinligidagi tus va rang munosabatlarini topa bilish;
- Katta rang-tusli munosabatlar chegarasidagi rang-tuslarning «cho'zilishi», aloxida buyumlarning xajmi shakllarining batafsil rangli qayta ishlanishi;
- Butun tasvirning umumiyliigi, yaxlitligi xamda kompozitsiya markazini ko'rsata bilish. Bu masalalarning xar biri nima bilan yakunlanishi ketma-ketlikda ko'rib chiqamiz.

Tasvirlashning to'liq rangtasviri qurilishi, naturaning asosiy qisimlari oralig'idagi tus va ranglar munosabatining aniq va to'g'ri ko'rsatilishi bilan aniqlanadi. Natyumortda ular fon, natura qo'yilmasida stol yuzasi va buyumlar xisoblanadi. Manzarada esa-osmon oralig'idagi yer yuzasi va daryodagi suv, oldingi, o'rta va orqa oraliqdagi ko'rinishlardir. Agarda bu asosiy rang-tuslar munosabati (farqlari) «etyud»da noto'g'ri tasvirlansa, manzaradagi obektlar yoki buyumlar shaklidagi rang tuslari, reflekslar va jism bo'laklari ustida xar qancha berilib ishlanmasin, yuqori saviyali mukammal rangtasvirga erishib bo'lmaydi. Qalamtasvirni ishlashda xam taxliliy masala bajariladi: dastlab buyumning «konstruktiv»-ichki qurilishi, nisbatlari, yaxlit umumiy shakl topiladi. Rassom shunday sharoitda aslo bu masaladan chekinmaydi, naturani umumiy va yaxlit ko'radi.

Rangtasvirda zamonaviy me'morchilik mavzusida ish boshlashdan avval naturadagi umumiy rang munosabatlarini diqqat bilan o'rganib chiqish lozim. Shuning uchun bu masalaga 5-10 minut vaqt sarflab, naturaning umumiy rang munosabatlarini tushunish kerak: eng och va eng to'q dog' qaerda, tusi va rang kuchi bo'yicha asosiy farqlar qanday ekanligini topish kerak.

Avvalo asosiy ob'ekt oralig'idagi tus farqlarini topish muhim: Memorchilikda, masalan, devor yuzasidagi fon eshik, deraza va turli shaklarga tushayotgan yorug'lik va boshqalar. Manzarani tasvirlashda avvalo osmon va yerning alohida jismlarini bir-biriga va ularning yaxlitligida bo'lgan rang munosabatlarida aniqlash kerak.

Buyumni barcha qismini palitrada topilgan rang bilan unga och yoki to'q rangni qo'shib ishlash mumkin emas. Buyumning har bir bo'lagi uchun yangi va yana yangi bo'yoq qorishmalarini topish kerak. Havaskor rassom me'morchilik lavhasini tasvirlayotganda old ko'rinishidan boshlashi ma'qul. Agar rang qatlamlarini orqa ko'rinishdan qo'ya boshlasa, uning rang va tus kuchlarini oshirib yuborib, birinchi ko'rinishni bo'rttirib ko'rsatishga bo'yoqlarning kuchi yetmaydi. Matoning to'liq yuzasi bo'yoqlar bilan butkul qoplanib, munosabatlar to'g'ri olinmaguncha haqiqiy jarangdor bo'yoqlarni, yorug'lik kuchini va tasvirlanayotgan buyumlar moddiylikni his qilib bo'lmaydi. Palitradagi yorqin bo'yoq - hali matodagi yorqin tus emas. Buyumlarning yoritilishi va materialligi munosabatlarning to'g'ri olinishiga bog'liq, aks holda yon tarafdagi tuslar to'g'ri topilmasa, qaysidir bir rangning jarangdorligiga erishib bo'lmaydi. Zamonaviy me'morchilikni tasvirlashda manzaraning fazoviy kengligini masalan, faqat havo perespektivasi tufayli ranglar o'zgarishini ko'rsatib beruvchi rangli dog'lar emas, balki yer yuzasida joylashgan narsalar va ob'ektlar: daraxtlar, qurilishlar, to'g'ri to'rtburchakli va notekis maydonlarni o'lchamlari va chiziqlar aniqligi ranglarda o'zgarib, manzaraning fazoviy uzoqlashishini yaratadi. Umumlashtirish bosqichida naturaga yaxlitligicha qarash, hamma narsani birdaniga ko'rish ya'ni "tikilib qarash" kerak. Navbatma-navbat naturaga ham, etyudga ham yaxlit qarash kerak, shunda qayerda qanday xatoga yo'l qo'yilganligini ilg'ab olish mumkin.

Butunligicha, yaxlitligicha ko'ra olish qobiliyati, ishni umumiydan xususiya qarab va undan yana umumlashtirishga tomon boriladi. Ish jarayonida yaxlit ko'rish – rangtasvirda ishlash mahoratining asosidir. Faqatgina shu malakaga ega bo'lgan rassom, naturani obrazli ko'rinishini to'g'ri ifoda etishi, undagi asosiy va har bir bo'lakning o'z o'rnini topishini, ishning yakuniy darajasini hamda kompozitsiyaviy markazga bo'ysundirishni samarali bajara oladi. Shu o'rinda har bir bo'lajak rassom yoki tasviriy san'atni o'rganuvchi tasvirlash jarayonini narsani o'ziga qarab chizishdan boshlashi, bundan ko'proq foydalanishi lozimligi hamda ushbu usul tasavvur qilish qobiliyatini o'stirishda samarali natijalarga olib keladi. Har bir narsa va xodisa tasvir etilar ekan, uni xuddi aslidagidek qilib aks ettirish mumkin emas. Buni ko'pchilik san'at nazariyotchilari va rassomlar, amaliyotchilar doimo ta'kidlab keladilar.

Mashhur rassomlarning hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishsak, ular tasviriy san'at sirlarini o'rganishda va bo'lajak asarlarini yaratishda xomaki rasmlar va rangli etyudlar chizishdan unumli foydalanganliklarini guvohi bo'lamiz. Shunday rassomlardan Leonardo Da Vinchi, Rafael Santi, Rembrandt, Karl Bryullov; O'zbekistonlik rassomlardan O'ral Tansiqbayev Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Malik Nabiyev, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzayev va boshqa rassomlarni aytish mumkin.

Rasm chizishga qiziqayotgan yoshlar ustozlar o'rgatayotgan jamiki chizish qoidalarini mukammal o'rganishlari uchun, albatta juda ko'p rasmlar ishlashlari o'z bilim va tajribalarini oshirib borishlari kerak. Albatta yaxshi natijalarga erishish uchun o'z vaqtida mehnat qilishdan qochmaslik kerak bo'ladi.

## **2.2. Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizish metodikasi.**

«Pedagogika» fanidan shu narsa ma'lumki, «metodika» — ifoda etish soʻzidan olingan boʻlib, oʻrgatiladigan oʻquv materialini talabalarga oʻrgatish, oʻqitish va oʻzlashtirishning nazariy va amaliy asosi — faoliyati yoki usulidir. Ya'ni «uslub» deganda tasviriy san'atda rasmi chiziladigan obyekt, naturani yoki tahlil etiladigan san'at asarini talabalarga tushuntirish yoki uning nazariy va amaliy asoslarini tahlil etib berishni yoki oʻrganishning yoʻl-yoʻriqlari, uslublari tushuniladi.

Oʻqitish metodikasining tarixi juda uzoqlarga ya'ni kishilar qachon bir – birlariga rasm chizishni oʻrgata boshlagan paytlarga borib taqaladi. U kishilik jamiyatining taraqqiyoti davrida takomillashib borgan davr oʻtishi bilan oʻqituvchilar olimlar, uning yangidan – yagi qirralarini ochganlar va mutaxassislar orasida tarqalgan.

Xozirgi kunimizda mantiqiy vazifalarni hal etish muammoli oʻqitish bilan bogʻlanadi. Muammoli vaziyatlar hosil qilish esa mantiqiy vazifalarni yechishga sharoit yaratadi. Mantiqiy fikrlash predmed va hodisalardagi eng muhim tomonlarni ajrata olish, koʻp dalillar ichidan tipiklarini koʻrsata olish, shakllangan tushunchalardan toʻgʻri foydalanish, perspektiva, rangshunoslik, kompozitsiyaning asosiy qonun va qoidalariga rioya qilish imkonini beradi.

Talabalar ufq chizigʻi, chiziqlar va havo perspektivasi, kesishish nuqtasi, buyumlar shaklining perspektiv qisqarishi haqida toʻliq ilmiy tushunchalarga ega boʻlishlari kerak. Me'morchilikda ishlangan rasmlarda esa chiziq va havo perspektivasi, binolar shaklining perspektiv qisqarishi kuzatiladi.

Tasviriy san'at mashgʻulotlarining samaradorligini koʻp jihatdan talabalar faolyatini nazorat qilish hamda ularning ish natijalarini baholashga bogʻliq. U oʻz oʻrnida birinchidan, oʻqituvchi faolyatini faollashtirishga, ikkinchidan talabalar tamonidan DTS materillarini puxta oʻzlashtirishga yordam beradi. Shuningdek u talabalarning fanga boʻlgan qiziqishini oshirishga, ularning faolyatlaridagi yutuq, kamchilik va nuqsonlarni aniqlashga ham samarali ta'sir koʻrsatadi. Oqibatda

talabalarning ishlari faollashadi. Bu o'rinda o'qituvchi o'qitish metodikasidan samarali foydalanishi ahamiyati katta .

O'qitish metodikasi deganda ta'lim va tarbiyani maqsadga muvofiq amalga oshirishning eng samarali yo'l uslublar yig'indisi tushuniladi.

Mashg'ulotning metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish esa o'qituvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga ham bog'liq. Shu bilan birga qisqa va oddiy yo'llar bilan oddiydan murakabga borish prinsipida ma'lum ketma –ketilikda erishish nazarda tutiladi. Boshqacharoq qilib aytganda uni o'qitish metodikasi to'g'ri tanlanganda talabalar kuzda tutilgan o'quv materialini puxta o'zlashtiradilar va ularda o'zlashtirish darajasi bir qadar yuqori bo'ladi.

Metodika so'zining o'zi ikki xil bo'ladi. Ular umumiy va xususiy metodika hisoblanadi.

Umumiy metodika ta'lim muassasida olib boriladigan barcha ta'lim tarbiya ishlariga, xususiy metodika esa u yoki bu o'quv predmetiga nisbatan qo'llaniladi. Metodika ko'pincha pedagogika psixologiya va san'atshunoslik estetika sohasidagi nazariy xulosalarga tayanib ish ko'radi.

Pedagogik nazariyada uch xil metodot bo'lib, asosan nutqiy namoyish etish va amaliy ishdan iboratdir. Bu metodlar o'z o'rnida mayda metodlarga ham bo'linadi. Masalan: nutqiy metod, hikoya qilish, tushuntirish, suhbat, kitob bilan ishlash va boshqa shu kabi metodlardan tashkil topadi.

Ko'rgazmali metod esa kuzatish, namoyish etish kabilardan amaliy ish esa mashq rasm ishlash, ijodiy ish, uyin kabi metodlarga bo'linadi.

O'qituvchilar faoliyatida uslub degan so'z ham ishlatiladi. O'qitish uslubi deb biz o'qitish metodlarining ayrim qirralarini tushunamiz. O'qitish uslublaridan o'qitish metodi tashkil topadi.

Masalan: namoyish etish metodi asosida o'qituvchi mashg'ulot o'tkazganda u ekranga san'at asarining tasvirini texnika vositasi orqali tushintradi. Bu jarayonda o'qituvchi suratdagi biror shaklini yirik qilib ko'rsatishi usul hisoblanadi. Shu urinda ekrandagi surat tasviri yuzasidan savol –javob o'tkazilganda ham bu yuqoridagi usulning davomi hisoblanadi.

O'qituvchi o'qitish metodlariga asoslanib ish yuritganda u rangshunoslik, perspektiva, yorug' soya, kompozisiya qonuniyatlari va ularning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shuni hisobga olish lozimki ta'viriy san'at va amaliy san'atning u yoki bu turining nazariy asoslarini o'rgatganda tasviriy san'at, va amaliy san'atning u yoki bu faoliyat turini o'qitganda o'qituvchi bir xil metodlardan foydalanishi mumkin emas.

Atrof – muhitni to'g'ri tushunish uchun talabalar hodisalarning sabablari va oqibatlarini ko'rib va bilib olishlari kerak.

Bizningcha, o'qitishda talabalarning mustaqil bilim olish jarayonini faollashtirishda va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda bilimlarning muammoli bayon etish yo'lidan keng foydalanish va qisman izlanish va ulmiy tadqiqot metodlarini qo'llash lozim. O'qitish jarayonining samaradorligini oshirish bevosita talabalarning faol psixik faoliyati (intellektuallik, emosionallik) bilan bog'liqdir. Bunda g'oyalarni chuqur tushunish kamlik qiladi. Lekin, shunday amaliy faoliyat tashkil qilish lozimki, unda g'oyalar ichki hissiyotlar tufayli to'la ongli ravishda harakat orqali yaqqol namoyon bo'lsin, mustahkamlansin. Bunga badiiy asarlarni ifodali o'qish, hikoya qilish, muziqa tinglash, slaydlar ko'rsatish orqali erishish mumkin. Agar o'qituvchi voqea va hodisalarni ta'riflashda ularning go'zalligi, nafisligi, yoqimlilikiga alohida e'tibor bersa, talay natijalarga erishishi mumkin. Shuningdek, buyumlarning shakllari, o'lchovlaridagi proporsionallik, yorug'soya nisbatlari va boshqalarni san'at asarlari orqali tahlil qilib berish lozim.

O'qitishni faollashtirish uchun talabalarni muntazam va maqsadga muvofiq ravishda rag'batlantirish ham muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim –tarbiya sohasida o'qitish metodlari qotib qolmaydi. U doimo taraqqiy etadi. Bunda o'qituvchining tajribasi albatta katta rol o'ynaydi. Shunday ekan pedagogik amaliyotda shart–sharoitlarni hisobga olib shakllangan metodika asosida ham o'qituvchining shaxsiy tajribasi asosida ham foydalana berish lozim.

Tasviriy san'at va amaliy san'at darslarining muvafaqiyati ko'p jihatdan talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini shakllantrish va doimiy ravishda uni



oshirib borishga bog'liq. Buning uchun o'qituvchi har doim o'z ustida muntazam ishlab borishi kerak bo'ladi. Har bir darsga imkoni boricha oz bo'lsada yangilik kiritib borilsa, yullar davomida kichik - kichik tajribalardan katta-katta yutuqlarga o'qituvchi erishishi mumkin. Har darsda o'qituvchi bir hil metod va usullarda dars o'tishi natijasida dars samaradorligi pasayib boraveradi. Shuningdek talabalarning fanga bo'lgan qiziqishi ham pasayib ketishiga sabab bo'ladi. Hozirgi kunimizda talaba yoshlarimizning zehni juda o'tkir. Dars o'tayotgan ustozning qanchalik dars o'tish mahorati yuqori ekanligi va bilim doirasi keng ekanligiga alohida etibor beradilar. Bu esa ularning darslarga bo'lgan qiziqishini oshishiga, fanlardan yaxshi o'zlashtirishiga, kerak bo'lsa dars o'tayotgan ustozga nisbatan hurmat qilish tuyg'ularini rivojlanishiga sabab bo'ladi.

**Zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizish.**  
*Ta'lim berish texnologiyasi*

<b>Mashg'ulot mavzusi</b>	<b>Zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizish</b>	
<b>O'quv soati: 10 soat</b>	Tinglovchilar: 15 ta	
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	Amaliy mashg'ulot	
<b>Amaliy mashg'ulot rejasi</b>	<p>1. Zamonaviy me'morchilik mazusida rasm ishlashga doir, amaliy mashg'ulot mazmunini tushuntirish.</p> <p>2. Zamonaviy me'morchilikni grizayl texnikasida rasm ishlash bo'yicha bosqichma - bosqich chizish yo'llarini o'rganish.</p> <p>3. Zamonaviy me'morchilik mazusida chizilgan rasmni tahlil qilish va ulardagi yutuq va kamchiliklarni ko'rsatish va baholash.</p>	
<p><b>O'quv mashg'ulotlarining maqsadi:</b> Zamonaviy me'morchilik mazusida rasm ishlash orqali talabalar estetik dunyo qarashini va Vatanga bo'lgan muhabbatini shakllantrish. Grizayl texnikasida jigar rahg bo'yoqlar yordamida zamonaviy me'morchilikni tog'ri chizish malakalarini rivojlantirish.</p>		
<b>Pedagogik vazifalari:</b>	<b>O'quv faoliyatining natijalari:</b> <b>Tinglovchilar biladilar:</b>	
<p>1. Zamonaviy me'morchilik mazusida rasm ishlashga doir, bilimlarni mustaxkamlash</p> <p>2. Amaliy mashg'ulotda zamonaviy me'morchilik mazusida rasm ishlash bo'yicha berilgan mustaqil ishlarni bajarishga o'rgatish</p> <p>3 Zamonaviy me'morchilik mazusidagi rasmlarni taqdimoti, ularni badiiy tahlil qilishga o'rgatish</p>	<p>1. Zamonaviy me'morchilik mazusida rasm ishlash va ularning o'ziga xos xususiyatlarini biladilar.</p> <p>2. Berilgan mustaqil ishlarni bajarish bosqichlarini to'liq biladilar.</p> <p>3. Zamonaviy me'morchilik ishlarini ko'rikka taxtlash, tahlil qilish va baholash</p>	
<b>Ta'lim usullari:</b>	Amaliy ish bo'yicha zamonaviy me'morchilik mazusidagi rasmlarni namoyon etish taqdimoti	
<b>Ta'lim vositalari:</b>	O'quv topshiriqlar. Slaydlar. Ko'rgazmali qurollar	
<b>O'qitish shakllari:</b>	Ommaviy	

<b>O'qitish shart sharoiti:</b>	Maxsus jihozlangan xona.
<b>Monitoring va baholash:</b>	Bajarilgan ishlar: taqdimoti

**Zamonaviy me'morchilik mazusida rasm ishlash  
bo'yicha amaliy mashg'ulotlarning  
ta'lim texnologiyasi**

<b>1. Tayyorgarlik bosqich.</b>	
Faoliyat mazmuni	
Trening	Tinglovchi
Mavzuni aniqlaydi, maqsadni belgilaydi va o'quv natijalarini rejalashtirish. Zamonaviy me'morchilik ishlashga oid plakatlar ko'rgazmali materiallar tayyorlanadi. Ularni qulayroq chizish usullari ko'rsatib o'tiladi.	Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'radilar

<b>2. Amalga oshiruvchi bosqich. Amaliy ish</b>	
Faoliyat mazmuni	
Trening	Tinglovchi
<b>1. Amaliy ishga kirish</b> 1.1 Mavzuning nomi: Zamonaviy me'morchilik mazusida rasm ishlash Madsad: Zamonaviy me'morchilikni grizayl texnikasida tasvirlashni o'rganish 1.2 O'quv mashg'ulotlarining o'tkazilishi tartibi. Mashg'ulot asosan o'quv ustaxonasida olib boriladi. 1.3 Zamonaviy me'morchilikga oid ma'lumotlar o'rganiladi. "Klaster" texnologiyalaridan foydalanib tinglovchilar bilimlarini faollashtiriladi. 1.4 Zamonaviy me'morchilik mazusida rasm ishlashga tayyorgarlik ishlari tekshiriladi va asosiy mashg'ulot bosqichiga o'tilishi ma'lum qilinadi.	Tinglaydilar  Bajaradilar  Savollarga javob beradilar  Bajaradialar
<b>2. Asosiy qism.</b> 2.1 Tinglovchilarga topshiriq mazmunini slaydlar va ko'rgazmali qurollar orqali tushuntiriladi. Har bir talaba o'zi alohida topshiriqni bajarish eslatib o'tiladi. 2.2 Talabalar faoliyati tashkil qilinadi, ularning bajarayotgan ishlari kuzatib, maslaxatlar beriladi. Zamonaviy me'morchilikni grizayl texnikasida	Har bir guruh, talabasi o'zi bajargan zamonaviy me'morchilik ishni taqdim etadi.

chizish qoidallari tushuntiriladi. 2.3 Talablar tomonidan bajarilgan zamonaviy me'morchilik ishlari taqdimoti boshlanishi e'lon qilinadi 2.4 Zamonaviy me'morchilikda bajarilgan ishlari tahlil qilinib baholanadi	
--	--

### 3. Yakuniy bosqich

Faoliyat mazmuni	
Trening	Tinglovchi
<p style="text-align: center;"><b>3. Amaliy ishni yakunlash</b></p> <p>1. Amaliy ish yuzasidan savollarga javob beriladi. "Aqliy hujum" texnologiyasidan foydalaniladi. 2. Talabalar bajargan ishlar tahlil qilinadi 3. Talabalarning faolligi baholanadi 4. Uyg'a vazifa va mustaqil ish yuzasidan maslahatlar beriladi.</p>	<p>Savollarga javob beradilar, tinglaydilar, bajargan ishlarini tahlil qiladilar. uyg'a vazifaga tayyorgarlik ko'radilar</p>

## AMALIY MASHG'ULOTLAR ISHLANMASI

**Fanning nomi:** Tasviriy san'at

**Mavzu:** Zamonaviy me'morchilik mazusida rasm ishlash. (10-soat)

### Amaliy mashg'ulotlar mazmuni:

Zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm ishlashda tasvirlashning asosiy qonun-qoidalaridan, tasvirlash qurollaridan o'rinli foydalanish kerak. Zamonaviy me'morchilikni grizayl texnikasida tasvirlashda avvalo u haqida tushuncha va bilimga ega bo'lish zarur.

Grizayl qalamda kompozisiya chizish va bo'yoq bilan ishlashda o'ziga xos "ko'prik" bo'lib, bo'lajak mutaxasislarning, chuqur otroflicha bilim olishlarida osos bo'ladi. Uni rang tasvir darslarida o'rganish muhimdir.

Grizayl (fransuzcha grisaille, gris – kulrang so'zidan olingan) biron – bir rang (qora, jigarrang, ko'k ko'pincha kulrang)ning nozik tuzlanish ochdan to'q tusga o'tishi hisobiga yaratiladigan asar; bezak rassomligi turi.

Qadimgi rassomlar o'z asarlarini yaratish jarayonidagi tayyorgarlik bosqichlaridagi ushbu har tomonlama qulay usuldan unumli foydalanib, tugal, puxta, yuqori badiiy sifat darajasidagi tasviriy san'at namunalarini yaratganliklari ma'lum. Grizayl ilgarilari rassomlik amaliyotida keng qo'llanilgan bo'lib, hozirgi paytda ham mahobatli ba'zida esa dastgohli rangtasvirda me'morchilik loyihalarini bajarishda unumli qo'llaganlar.


Masalan XVI asrning taniqli rassomi P. Rubensning o'zining 200 ga yaqin miqdorda bajargan grizayllari bilan bu borada mashhurdir. U katta hajmdagi bezakli mahobatli asarlarning loyiha namunalarini to'q jigarrang tusdan foydalanib tayyorlangani tarixdan ma'lum. Rassomning shunday asarlaridan bir nechta o'ntasi Sankt-Peterburgdagi "Ermitaj" muzeyining doimiy ekspozitsiyasidan o'rin olgan.

### **Mashg'ulotlarning jihazlanishi**

1. Zamonaviy me'morchilik mavzusidada rasm ishlashga oid xar hil plakatlar.
2. Zamonaviy me'morchilik haqida plakatlar, slaydlar va reproduksiyalar.
3. Talabalarning ishlaridan numunalar.
4. Mavzuga oid adabiyotlar, al'bomlar, bukletlar va boshqalar.



*“АҚЛИЙ ҲУЖУМ” технологияси*





**Bitiruvchi kurs talabasi Qurbonova Ra'noning zamonaviy me'morchilik mavzusi asosida mustaqillik yillarida qurilgan Temriylar tarixi Davlat muzeyini grizaylda ishlagan tasviri.**

## **Umumiy xulosa**

O'zbekistan Respublikasining mustaqil davlat sifatidagi faoliyati, milliy me'morlik va shaharsozlik sohalarida yangi ufqlarni ochib berdi. Huquq va erkinlikni qo'lga olgan mustaqil davlatimiz, xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar o'rnatib, jaxon xamjamiyati doirasida o'z o'rniga ega bo'ldi. O'zligini namoyon qila boshlagan millat, turli uslubdagi me'morlik inshootlarini yaratishga qodir ekanligini amalda ko'rsatdi. Yangi me'morlik muntazam rejalar, xandasaviy toza sirtlar, engil va tiniq konstruksiyalar, binolarni yangi turlari va tarixiy shaharlarni yangicha tiklash bilan islom madaniyatiga xos vazminlik ruhida maxobatli imoratlar yaratishga intilmoqda.

Zamonaviy me'morchilik bo'yicha rasm chizishda talaba narsa, voqea, obyektlarni erkin, ijodiy ruhda tasvirlab, rasm chizadigan badiiy - ijodiy metodlarda ish olib boradi. Bunda ko'proq umumiylikka erishiladi. Narsa va voqeani o'zgartirib, o'zining bilimi, tasavvuri va tushunchalari asosida rasm ishlaydi. Bu mashg'ulot talabalarning grafik bilim va malakalarini mustahkamlaydi, takomillashtiradi. Badiiy ijod qilishga o'rgatadi, realistik rasm chizishning nazariy va amaliy asoslarini o'rgatadi.

Talabalar memorchilik ko'rinishlarini tasvirlashda ufq chizig'i, chiziqlar va havo perspektivasi, kesishish nuqtasi, binolar shaklining perspektiv qisqarishi haqida to'liq ilmiy tushunchalarga ega bo'lishlari kerak. Me'morchilikda ishlangan rasmlarda esa chiziqli va havo perspektivasi, binolar shaklining perspektiv qisqarishi kuzatiladi. Rasm chizishga qiziqayotgan yoshlar yaxshi natijalarga erishish uchun uchun tasvirlashning ma'lum tartib qoidalarga rioya qilgan holda o'z vaqtida mehnat qilishdan qochmaslik kerak bo'ladi.

O'qituvchi zamonaviy me'morchilikni tasvirlashni o'rgatishida o'qitish metodlariga asoslanib ish yuritadi va rangshunoslik, perspektiva, yorug' soya, kompozisiya qonuniyatlari va ularning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shuni hisobga olish lozimki ta'viriy san'atning nazariy va amaliy asoslarini o'rgatganda o'qituvchi bir xil metodlardan foydalanishi mumkin emas.



O'qituvchi zamon talablari asosida dars o'tishi uchun doimo o'z ustida ish olib borishi zamonaviy pedagogik texnologiyalarini mukammal egallashi kerak.

Malakaviy bitiruv ishimizni amaliy qismida "Zamonaviy me'morchilik" mavzusi asosida Toshkent shahrida joylashgan Temuruylar tarixi Davlat muzeyining tashqi ko'rinishini fasadini tasvirlashga harakat qildik. Tasvirini ifodalashda 70x50 o'lchamdagi qalin karton qog'azga grizayl usulida moy bo'yoq texnologiyalaridan foydalanildi.

Grizayl (fransuzcha grisaille, gris – kulrang so'zidan olingan) biron – bir rang (qora, jigarrang, ko'k ko'pincha kulrang)ning nozik tuzlanish ochdan to'q tusga o'tishi hisobiga yaratiladigan asar; bezak rassomligi turi.

Mavzi asosida Temuruylar tarixi Davlat muzeyini tasvirlash kishiga qanchalik zavq bag'ishlashini uni tasvirlash jarayonida his qildik. Temuruylar tarixi Davlat muzeyi mustaqillik yillarida qurilgan bo'lib, zamonaviy va tarixiy ananalarni o'zida mujassamlashtirgan. Uning ustki ko'rinishidan qaralganda doira shakliga egadir. Atrofi birqancha oq ustunlardan tashkil topgan. Tarixiy milliy me'morchilik obidalariga o'xshab uning yuqori qismi moviy rangdagi gumbaz bilan yopilgan. Tashqi tamoni devorlari geometrik va boshqa milliy naqshlar bilan bezatilgan. Muzeyning oldi tamonida zinapoyalar atrofida favoralar joylashganligi, undan zilol suvlarning otilib turishi, uning yonida esa turli tuman gullarni chaman – chaman bo'lib ochilib turishi kishilarga o'zgacha shodlik ulashadi. Vatanimizda mana shunday go'zal manzaralar kun sayin yanada jonlanmoqda. Bunday zamonaviy memorchilik va go'zal manzaralarni tasvirlashning o'zi ham bir baht.

O'zbekiston diyorini yanada ko'rkam va chiroyli bo'lishi, kelajak avlodni barkamol insonlar bo'lib yetishishi, tasviriy san'atni yanada rivojlantirish, biz yoshlarni bo'lajak o'qituvchilari zimmasiga ekanligidan faxrlanaman. Ilm sirlarini, tasvirlash sirlarini bizga chuqur va mukammal o'rgatgan barcha ustozlarimizga o'zimizning samimiy minnaddorchiligimizni bildiramiz.

## **Taklif va tavsiyalar**

Bugungi kunimizning dolzarb muamolaridan biri kelajak yoshlarimizni har tamonlama Vatanimizga foydasi tegadigan komil insonlar etib tarbiyalashdir. Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san'at darslarida zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm chizish talabalarning ko'rish xotirasi, borliqni idrok etish, go'zallikni his qila bilish, ma'naviy dunyo qarashini kengayishi, mehnat qilish qobiliyatini rivojlanishi, vatanga muhabbat kabi juda ko'plab ijobiy qobiliyatlarini rivojlanishida xizmat qiladi.

Zamonaviy memorchilikni tasvirlashni o'rganishda xomaki rasmlar va ranglavhalar ishlashning o'ziga xos o'ri bor. Rasm chizishni mukammal o'rganmoqchi bo'lganlar xomaki rasmlar ishlamasdan puxta rasm chizishni o'rgana olmaydi. Xomaki rasmlarni muntazam ravishda ishlamaydigan talabada chizgan rasmida nuqsonlar ko'pligi sababli o'zi ishlayotgan tasviriga nisbatan sovuqqonlik paydo bo'ladi. Rasm chizishni o'rganishda xomaki rasm ishlashdan o'rinli foydalanish rasm chizish qobiliyatini oshiradi. Ayni damda uzoq muddatda chiziladigan amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik bo'ladi. Uzoq muddatli rangtasvir amaliy mashqlarini bajarishda, qalamtasvirda homaki rasmlar ishlash kabi rangtasvirda ham rangli etyudlar ishlab turishning ahamiyati kattadir.

Talabalar tasviriy san'at mashg'ulotlarida "Zamonaviy memorchilik" mavzusida rasm ishlaganlarida me'morchilikning turli shakllarini ko'radilar, uning katta-kichikligini, shaklini, shaklidagi kerakli elementlarini aniqlaydilar. Me'morchilik ko'rinishlarini idrok etib, rang va tusini o'rganishadi. Me'morchilik ko'rinishini idrok etish bilan birga, uning tasvirini yaratish tahlilini o'rganib, ong faoliyati asosida me'morchilik ko'rinishini tasvirga aylantirib, qog'oz yuziga joylashtirish bo'yicha hisob-kitob qilinadi. Shundan so'ng tasvirni qog'az yuzasiga tushiriladi. Bu mashg'ulotlar davomida diqqat, idrok, xotira, tasavvur, did emotsiya rivojlanib, rasm chizish malakasi ortadi. Chunki bu mashg'ulotlarda talaba

me'morchilikni kuzatadi va ko'radi, uni ong faoliyatida tahlil qiladi, rang tuslarini topib, uni qog'ozga tushiradi.

Bizning ishimiz maqsad va vazifalaridan kelib chiqib qo'yidagi taklif va tavsiyalarni keltirib o'tamiz.

- Tasviriy san'at fani badiiy tarbiyaning asosini tashkil etadi uni o'qitish orqali talabalarda estetik tarbiyani shakllantirish.

- Tasviriy san'atni o'qitishning asosiy maqsadi turli narsalarning tasvirini amaliy holda bajara olishga o'rganish va kompozitsiyalar tuzish.

- Zamonaviy me'morchilik mavzusida rasm ishlashda tasvirlashning asosiy qonun-qoidalaridan, tasvirlash qurollaridan o'rinli foydalanish kerak. Zamonaviy me'morchilikni grizayl texnikasida tasvirlashda avvalo u haqida tushuncha va bilimga ega bo'lish zarur.

- Grizaylda kompozitsiya chizish va bo'yoq bilan ishlashda o'ziga xos "ko'prik" bo'lib, bo'lajak mutaxassislarining, chuqur otroflicha bilim olishlarida osos bo'ladi. Uni rang tasvir darslarida o'rganish muhimdir.

- Tasviriy san'at darslari mashg'ulotlarini tajribali musavvirlar, pedagoglar olib borishini ta'minlash muvafaqiyatlar gorovidir. Ana shundagina tasviriy san'atning tur va janrlarida rasm chizish mashg'ulotlari o'zining samarasini beradi.

- Yoshlarga zamonaviy me'morchilik ko'rinishlarini tasvirlashda estetik idrok etishni o'rgatish, ijodiy qobiliyatini shakllantirish; amaliy rasim chizishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, yoshlarni tabiatga nisbatan yaxshi munosabatni rivojlantirish, jamiyatimiz, davlatimiz istiqboliga hissa qushadigan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash kerak bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. I. A. Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008. nashriyoti.
2. I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda T., "O'zbekiston", 2000.
3. M. Nabiyev. Rangshunoslik T., "O'qituvchi", 1995
4. N. Oydinov. Rassom-o'qituvchilar tayyorlash muammolari. T., "O'qituvchi", 1997.
5. S.S.Bo'latov. Rangshunoslik. T., O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti 2009
6. O'zbekiston san'ati. "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T., 2001.
7. S. Uralov. Mo'jiza yaratish san'ati. T., "Mehnat", 1996
8. N. Oydinov. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. T., "O'qituvchi", 1997
9. R. Xasanov. Tasviriy san'at asoslari. T., G'.G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi. 2009
10. S.F.Abdurasulov. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. T., "ILM – ZIYO", 2011
11. Shoxalil Shoyoqubov. Zamonaviy O'zbekiston mimiatyurasi.T., "O'zbekiston", 2006
12. P. P. Shabaratov. Miniatyura. T. "Iqtisod - moliya" nashriyoti. 2011
13. B. Boymetov. Qalam tasvir. T. "Musiqqa nashriyoti", 2006
14. G'. M. Abduraxmonov. Tasviriy san'at kompozitsiyasi. T., 1996
15. B.T. Maxmudov. Dasgohli rangtasvirda kompozitsiya. T., 2009
16. D. A. Nazilov. Kompozitsiya asoslari. T., "Yangi asr avlodi", 2009
17. N. Abdullayev San'at tarixi. T., "O'qituvchi", 1987.
18. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
19. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
20. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
21. [www.nbgf.intal.uz](http://www.nbgf.intal.uz)
22. tdpu-INTERNET. Ped [www.nbgf.intal.uz](http://www.nbgf.intal.uz)

## **Atamalarning izohli lo'g'ati**

**Akvarel** – (ital. acquerello) – suvda eruvchi bo'yoqlar. Bu bo'yoqlarning ajoyib xususiyati bo'yoq qatlamlarining tiniqligi va mayinligidir. Akvarelda oq rang bo'lmaydi, uning o'rnida bo'yoqlarning tiniq va yupqa qatlami tagidan ko'rinadigan yoki bo'yalmay qolgan qog'ozning rangi xizmat qiladi.

**Al'fresko** – nam shuvoq ustiga suvda qorilgan bo'yoqlar bilan ishlanadigan tasvir. Bu qadimgi rus san'atida keng qo'llanilgan.

**Allegoriya** - (yunon. allegorio – kinoya, majoz) – mavhum tushunchalarning asosiy tomonlarini aniq obraz shaklida yorqin namoyon qiluvchi badiiy tasvir usuli. Allegoriya san'at tarixida keng foydalanilgan va hozirgi zamon san'atida ham ishlatiladi.

**Amaliy grafika** – grafika san'ati turlaridan biri. Turli xildagi tabrik xatlari, markalar, etiketkalar - shirinliklarni o'raydigan qog'ozlarni bezash san'ati.

**Animalist-** (lot.animal- hayvon)– hayvon va jonivorlar aks ettirilgan rasm, surat, haykallar bo'yicha mutaxassis rassom, haykaltarosh.

**Animal janr** - hayvonot dunyosini, jonivorlarni tasvirlovchi tasviriy san'at turi.

**Ansambl** - (frants. ensemble–birlik, uyg'unlik, ohangdoshlik) – arxitekturada – bir xildagi arxitektura kompozitsiyasini tashkil etuvchi imoratlar yig'indisi.

**Applikatsiya** – (lot. applicatio - yopishtirish) – gazlama, qog'oz va boshqa materiallarga rang-barang gazlama, qog'oz bo'laklari, donli o'simliklar poyalarini elimlash yo'li bilan naqsh tuzib, badiiy tasvir yaratish.

**Arxitektura** - qurilish san'ati, me'morchilik, inshootlarni loyihalash ilmi. Masalan, Samarqand arxitekturasi.

**Asosiy ranglar** – rassomlikda asosiy deb qabul qilingan uchta rang - qizil, sariq va ko'k.

**Afisha** – (frants. affiche - e'lon) spektakl, kontsert va boshqa madaniy tadbirlar, tomoshalar, to'g'risida xabar beruvchi maxsus e'lon.

**Axromatik rang**– (yunon. achrmatos - rangsiz) bu ranglar bir biridan yorug'lik kuch bilan farq qiladilar. Axromatik ranglarga oq, qora va kul rangning barcha t uslari kiradi.

**Axta**– xitoy iog'ozi.

**Baget**- portret, rasm va shu kabilar solinadigan to'rt burchakli moslama.

**Barel'ef**- (frants. bas-relief) past rel'ef– haykaltaroshlikda rel'ef turi – tekis yuzadan ko'tarilib turadigan, tasvirlar qalinligining yarmidan kami bo'rtib chiqqan bo'ladi. Tanga, medal' va znachoklar bunga misol bo'la oladi.

**Batal janri** – (frants. bataille – jang, urish) – tasviriy san'atning jang, urush manzaralarini aks ettiruvchi turi.

**Bezak** – biror narsaga ishlangan naqsh, ziynat, pardozi.

**Vatman** - vatman qog'oz, chizma va rasm chizish uchun ishlatiladigan yuqori navli qalin oq qog'oz.

**Varaxsha** - Buxoro yaqinidagi joy. Bu erda III-IV asrlarda saroy qurilgan, uning devoriga bo'rtma ganch naqshlar ishlashgan. Naqshlar odamlar boshini, hayvonlar, qushlar, baliqlar va har xil o'simliklar shaklini ifodalagan bo'lib, ular juda jonli va ta'sirli chiqqan.

**Gamma** – rang gammasi ma'nosida, rangning turli t uslari, masalan, iliq va sovuq rang t uslari.

**Gravyura** – (frants.graver-o'yish) grafika turi. Gravyura metall, yog'och, linoleum, tosh va boshqalarga maxsus asboblari yoki kimyoviy vositalar orqali bo'rtma yoki oo'yma qilib tayyorlanadi.

**Grafika** - yunon (grafikus-tasvirlangan, aks ettirilgan), tasviriy san'at turi. Unga oddiy qora qalamda chizilgan surat, mazmunli rasmlar, plakatlar, markalar va shu kabilar kiradi.

**Grizayl**-(frants. grisale, gris- kul rang ) - bir rang bilan turli och, toq, nim rang qilib, ko'pincha kul rang bo'yoqda yaratilgan rasm. Asosan devoriy rasmlar rel'efli bo'lib ko'rinishi uchun shu tarzda ishlanadi.

**Dizayn-** kundalik hayot, turmushda ishlatiladigan buyumlar, kiyim-kechak, asbob-uskuna, idish-tovoq mebel va shunga o'xshash narsalarni qulay, chiroyli shakl va rangini, yangi shakl-shamoyil yaratish san'ati.

**Yoruflik va soya** – narsalarning shaklini va hajmini to'g'ri bajarishda yorug' va soya qonunlari muhim ahamiyatga ega. Yorug'lik va soya majmuasi quyidagi: yorug'lik, yarim soya, soya, refleks, shu'la.

**Yofoch o'ymakorligi** amaliy bezak san'atining qadimiy va keng tarqalgan turi, o'ymakorlikning bir sohasi. Yog'ochni o'yib, kesib, chizib, bo'rttirib, teshib, taxtacha yoki yog'och bo'laklarini bir-biriga ulab ishlanadi.

**Janr** – (frants.- tur, ko'rinish). Tasviriy san'atda janr deyilganda, chegaralangan mavzuni o'zida aks ettiradigan san'at asarlari tushuniladi.

**Ilyustratsiya** (lotn. illustratsion -yoritish, ko'rgazmali tasvirlash) - kitob, jurnal, gazeta matniga q'shimcha tarzda beriladigan, uni to'ldirishga, matn ma'lumotlarini ko'z o'ngida gavdalantirishga xizmat qiladigan surat, rasm, reproduksiya, shuningdek, kartina, sxema va turli tasvirlar.

**Kartina** - mustaqil badiiy qiymatga ega bo'lgan tasviriy san'at asari. Romga tortilgan mato, metall yoki yog'och taxta, karton, qog'ozga moyli bo'yoq, akvarel, pastel, guash, tush, mum kabilar bilan dastgoh (mol'bert)ga o'rnatib ishlanadi. Bu ital'yancha «karta» so'zidan olingan bo'lib, “qog'oz” degan ma'noni anglatadi. Kartina so'zining dastlabki ma'nosi – ‘nozik, chiroyli, bezatilgan qog'oz.

**Kolorit** – (lot. kolor – rang)- tasviriy san'atda real hayotni xaqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o'zaro mutanosibligini, nisbati..

**Kontrast** – (frants. kontraste – keskin ziddiyat), qora rang oq rang oldida yana ham qoraroq ko'rinadi; issiq narsani sezish ketidan sovuqqa sezgirlik kuchayadi va h.k.

**Kontur** – (frants. Kontoir) predmetning umumiy shaklini tasvirlovchi ko'rinish, abris, chiziq.

**Kompozitsiya** – lot. – tuzilish, qurilish. Badiiy asarning tuzilishi, asarda tasvirlanayotgan narsalarning obrazlari va badiiy vositalarning muayyan maqsadga xizmat qiladigan tartibiy joylashishi va ularning muvofiqligi.

**Linogravyura** (linoleum va gravyura)-linoleum parchasiga ishlangan gravyura. Texnikasi ksilografiyaga yaqin. Ishlangan tasvirni ko'p nusxada nashr etish imkonini beradi..

**Manzara** peyzaj – ma'lum bir joyning ko'rinishi, tasviri; tasviriy san'at janri. Manzarada tabiat tasviri – dengiz ko'rinishlari (marina), daraxtzorlar, qirlar, shahar va qishloqlarning qiyofasi, umuman, turli joylarning tasviri orqali kishining his-tuyg'ulari badiiy obrazlarda ifodalanadi.

**Mazok** – bo'yoq surmasi.

**Mulyaj** frants. haykaltaroshlikda naturadan olingan nusxa, tabiiy mahsulotlar, odam gavdasi qismlarining sun'iy shakli.

**Mu'jaz** - miniatyuraviy.

**Minora** (arab- mayoq)- baland inshoot. Minoralar doira, ko'p qirrali, to'rtburchak shaklida bo'lib, yuqoriga tomon ingichkalashib boradi.

**Mirak naqqosh** –(tug'. yil noma'lum – vafoti 1507) - naqqosh, musavvir. Kamollidin Behzodning ustози (uni Sayyid Mirak, Xoja Mirak deb ham atashgan). Usta xattot bo'lgan. Xirot jome masjidi kitoblarini, ko'pgina yirik binolarni bezagan.

**Musavvir** /arab – rassom/- turli tasvirlar ishlovchi, rasm chizuvchi ijodkor.

**Natura** –(lot. natura – tabiat)- rassom, shuningdek, fotograf, kinooperatorga tasvir ob'ekti bo'lib xizmat qiladigan real, borliq (inson, narsalar, manzara va h.k.)

**Palitra** (frants. Palette – plastinka, planka)- rassom bo'yoq qoradigan taxtacha. Metall, chinni, ba'zan yog'ochdan tayyorlanadi. Ma'lum bir rassom, rasm uchun xarakterli bo'lgan rang, bo'yoqlar ham palitra deb yuritiladi.

**Peyzaj** (frants. peuz– joy, makon) - tasviriy san'at turlaridan biri. Manzara.

**Perspektiva** –(lot.perspitio – ravshan ko'raman) - narsalarni tekislikda tasvirlash qonun-qoidalarini o'rganuvchi amaliy fandır.



**Plakat**-(frants. plakard– e’lon) – ko’rgazmali targ’ibot maqsadlariga xizmat qiladigan tasviriy san’at turi. Ko’pincha, qisqa matnli bo’ladi. Kundalik hayotning eng muhim mavzularida diqqatni tortadigan qilib chiziladi va bir yoki ko’p rangli bo’ladi.

**Portret** - (frants.portreit - tasvir)- real borlikda mavjud bolgan yolg’iz, ikki yoki bir guruh kishilarning tasviri.

**Proporitsiya**- (lot.proportio – munosabat)- badiiy asarning alohida elementlari va butun asar kattaliklari munosabati.

**Rakurs** – (frants. raccoureir - qisqartmoq) – tasviriy san’atda turli narsalarni kishi ko’ziga olisdan ko’rinayotgandek qilib, qisqartib aks ettirish.

**Realizm** – voqelikni badiiy ijodning turlariga xos maxsus vositalar bilan haqqoniy, ob’ektiv tarzda aks ettirish. O’zbekiston hududida yuksak darajaga ko’tarilgan miniatyura san’atida realizm elementlari ko’zga tashlanadi.

**Reklama** – (lotin. reklamo - qichqiraman)- san’at asarlari va boshqalarni ommalashtirish maqsadida ma’lumot tarqatish.

**Sangina** –(lot. Sangumens - kondek) - qizil va qizg’ish-jigarrang qalam. YOg’och ishlatmay, temir oksidli tuproqsimon jinlardan tayyorlanadi. Tabiiy va sun’iy xillari bo’ladi. Rassomlar etyud, grafika asarlari ishlashda foydalanadilar.

**San’at** – arabcha atama bo’lib, hayotdagi narsa va hodisalarni badiiy obrazli tarzda aks ettiruvchi ma’naviy madaniyatning tarkibiy iismi. U tasviriy va


**Syujet** (frants. Suiet - predmet)- tasviriy san’at asarida aks ettirilgan ma’lum voqea, vaziyat. Voqea mazmuni o’z aniq ifodasini topgani bilan (ayniqsa maishiy, tarixiy janrga mansub tasviriy san’at asarlarida) ko’zga tashlanib turadi.

**Tempera** (ital.temperare – bo’yoq qorish)- rassomlikda keng tarqalgan usullardan biri. Binolarni bezashda, dastgohli san’at asarlarida keng qo’llaniladi. Tempera bilan ishlangan kartinalar, bezaklar quyosh nuri va changdan yaxshi asralsa, o’z rangini, tusini yaxshi saqlab qoladi.


**Tus** – ohang, ranglarga nisbatan ishlatiladi.

**Fon** (lot. Fundus – tub, asos), zamin – kartina va grafika asari, rel’ef va naqshda asosiy shaklning orqa ko’rinishi, qo’shimcha tasvir. Buyuk rassomlar portret fonida manzara aks ettirganlar, bu bilan shaxs yashagan muhitni ko’rsatganlar. Rel’ef va naqshda shaklning jozibador chiqishiga yordamchi vosita bo’ladi.

**Qo’shimcha ranglar** – ranglarni aralashtirganda hosil bo’ladigan omuxta rang yoki rangning tusi, ohangi, to’qligi, ochligi, iizil, sarii zangori ranglarni i’shish oriali olingan ranglar.



Temuriylar tarixi Davlat muzeyi. Toshkent. 1996.



Temuriylar tarixi Davlat muzeyining markaziy zali. Toshkent. 1996.





Toshkent shahar hokimligi binosi



“Buxoro” mehmonxonasi. Buxoro. 1996.





“Afrosiyob” mehmonxonasi. Samarqand. 1996.



“Sheraton” mehmonxonasi. Toshkent. 1999






“Akva-park” saylgohi. Toshkent. 1995.



“Interkontinental” mehmonxonasi. Toshkent. 1995.





“Yunusobod” tennis korti. Toshkent. 1998.



“Jar” sport majmuasi. Toshkent. 1998.

## MUDARIJA

<b>Kirish:</b> .....	<b>3</b>
<b>I bob Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san’at darslarida zamonaviy me’morchilik mavzusida rasm chizishning umumiy tamoni</b> .....	<b>8</b>
1.1. Adabiyotlar tahlili.....	8
1.2. Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san’at darslarida zamonaviy me’morchilik haqida ma’lumotlar.....	13
1.3. Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san’at darslarida zamonaviy me’morchilik mavzusida rasm chizishni o’rgatishning ahamiyati. ....	26
1.4. Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san’at darslarida zamonaviy me’morchilik mavzusida rasm chizishda tasvir vositalari va rang munosabatlari bilan ishlash. ..	35
Birinchii bob bo’yicha xulosa.....	45
<b>II bob Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san’at darslarida zamonaviy me’morchilik mavzusida rasm chizishning shakl va uslublari</b> .....	<b>47</b>
2.1. Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san’at darslarida zamonaviy me’morchilik mavzusida rasm chizishning o’ziga xosligi.....	47
2.2. Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san’at darslarida zamonaviy me’morchilik mavzusida rasm chizish metodikasi. ....	54
<b>Umumiy xulosa</b> .....	<b>64</b>
<b>Taklif va tavsiyalar</b> .....	<b>66</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar</b> .....	<b>68</b>
<b>Atamalarning izohli lo’g’ati</b> .....	<b>69</b>



